

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

JAMOLOVA ZILOLANING

MUSTAQILLIK DAVRI O`ZBEK
SHE`RIYATIDA IRFONiy G`OYALAR TALQINI
(A.ORIPOV, A.MAHKAM IJODI MISOLIDA)

*mavzusidagi 5A120 100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

(2017-2018- o`quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor

AHMEDOVA Sh.N

Buxoro – 2018

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

«Tasdiqlayman» ____

Fakul'tet dekani A.A. Haydarov

« » _____ 2018-y.

LAMOLOVA ZILOLANING
MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK
SHE`RIYATIDA IRFONiy G`OYALAR TALQINI
(A.ORIPOV, A.MAHKAM IJODI MISOLIDA)

mavzusidagi 5 120 100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistr akadem darajasini olish uchun yozgan

(2017-2018- o`quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor
AHMEDOVA Sh.N.

Rasmiy hakam: **ф.ф.д., prof. D. S.O'RAYEVA**

Buxoro – 2018

«Tasdiqlayman»

«Ma'qullayman»

Ilmiy rahbar: f.f.doktori,

O`zbek adabiyoti

professor Sh.N. Ahmedova

kafedrası mudiri

Sh.N.Ahmedova

« _____ 2017-y.

« _____ 2017-y.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri Jamolova Zilolaning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqini (A.Oripov, A.Mahkam ijodi misolida)” mavzusidagi magitrlk dissertatsiyasi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to`plash, o`rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o`rganish	oktabr		
	3. Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To`plangan materiallarni sistemalashtirish	noyabr		
MD ustida ishlash	1. MD rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig`ilgan nazariy ma`lumotlarni ishga kiritish)	yanvar		
	3. II va III bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma`lumotlar asosida)	fevral		

	ishning amaliy qismini shakllantirish)			
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	aprel		
	6. Adabiyotlar ro`yxatini tartibga solish			
MDni rasmiy-lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
	MDni himoya qilish	iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi

Jamolova Zilola

Imiy rahbar

Shoira Ahmedova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

29-avgust, 2017-y.

Qatnashdilar: kafedraning

barcha a`zolari

K U N T A R T I B I

Magitrluk dissertatsiyasi **mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni t ayinlash.**

Kafedra yig`ilishi qaror qiladi:

1. 5120100 –*Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri* Jamolova Zilolaning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqini (A.Oripov, A.Mahkam ijodi misolida)” mavzusi shaklida tasdiqlansin.

2. 5120100 –*Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri* Jamolova Zilolaning magitrluk dissertatsiyasiga f.f.doktori, professor Shoira Ahmedova ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti

**o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan KO`CHIRMA**

Buxoro sh. 5-may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning

barcha a`zolari

K U N T A R T I B I

4. 5120100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri Jamolova Zilolaning magistrlik dissertatsiyasi “Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqini (A.Oripov, A.Mahkam ijodi misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi muhokamasini tinglab.

Kafedra yig`ilishi qaror qiladi:

1. 5120100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri Jamolova Zilolaning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqini (A.Oripov, A.Mahkam ijodi misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

2.Mazkur magistrlik dissertatsiyasiga taqrizchi etib, prof. D.S.O`rayeva tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

U. To`rayeva

bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 –Adabiyotshunoslik (o`zbek) mutaxassisligi magistri Jamolova Zilolaning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqini (A.Oripov, A.Mahkam ijodi misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga **DAK XULOSASI**

No	Belgilangan me'yorlar			
1	MDning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo`lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo`yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo`yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo`yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to`liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	MDda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to`la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to`la ishonchli emas–3 ball
7	MDning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta`lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma`naviy-ma`rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q– 3 ball
8	Magistrning mavzu bo`yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to`la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball

9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma`ruza matnlari, o`quv qo`llanma va ma`lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Magitr taqdimotiga baho	a`lo - 10 ball	yaxshi - 7 ball	qoniqarli - 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq - 8 ball	o`rta - 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	MDni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a`lo - 7 ball	yaxshi - 6 ball	qoniqarli - 5 ball
14	MDga qo`yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo`yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A`zolari: 1. dots. Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof. Ahmedova Sh.N. (a`zo)

3. dots. Ражабова М. Q. (a`zo)

4. dots. Давронова Ш. .(a`zo)

5. Беганжева (a`zo)

6. Бозорова М (a`zo)

-iyun, 2018-y.

Reja:

Kirish

I BOB. O`ZBEK SHE`RIYATIDA IRFONIY MANBALAR

I.1.O`zbek she`riyatida irfoniylar g`oyalarning o`ziga xos xususiyatlari.

I.2.Mustaqillik davri she`riyatida irfoniylar ohanglarining badiiy talqini. (Abdulla Oripov, Asqar Mahkam)

II BOB. ABDULLA ORIPOV SHE`RIYATIDA IRFONIY G`OYALAR TALQINI

II.1.Abdulla Oripov ijodida irfoniylar g`oyalarning aks etishi.

II.2. “Haj daftari ” va “Hikmat sadolari” to`plamlarining irfoniylar-badiiy talqini.

III BOB. ASQAR MAHKAM IJODIDA IRFONIY G`OYALAR BADIYYATI

III.1. Asqar Mahkam ijodidagi falsafiy –irfoniylar g`oyalarning yoritilishi.

III.2. Shoir she`rlarida badiiy mahorat masalasi.

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Kirish

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Istiqloldan keyingi o'zbek she'riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan nisbatan ijodiy erkinlik darajasi, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi mafkuraviy yakkahokimlik asoratlarini bir qadar cheklab qo'ydi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasini oshirdi hamda shakliy,uslubiy,mazmuniy miqyoslarni yanada boyitdi. Zero, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish har doim ham yetuk mutaxassilar zimmasida bo'lgan.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov e'tirof etganlaridek "Xalqimiz ma'naviyatining, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga ega adabiyotimizning asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnati barchamizning ko'z oldimizdan o'tadi"[2,19]. Uzoq vaqt taqiqlanib kelingan diniy-ma'rifiy mavzularning adabiyotga qayta yuz ko'rsata borishi masalalari bugungi adabiyotda sifat jihatidan o'zgarishlar qildi. Badiiy adabiyotdagi bunday sifat o'zgarishlarning tug'ilishiga sabab sho'rolar siyosati davrida zararli deb topilgan asarlarning qayta nashr etilishi bo'ldi. Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, Payg'ambarimiz hadislarining chop etilishi, islom dinining at-Termiziy, Ismoil Buxoriy kabi buyuk nazariyotchilari, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor kabi faylasuf shoirlari asarlarining chop etilishi so'z san'atiga yangi, toza, qadimiy mavzular shabadasini olib kirdi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyishi e'lon qilindi. Unga ko'ra, matbuot, nashrlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjat qabul qilingan. Kitob mutolaasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati haqida Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev: “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma`naviyatga erishib bo`lmaydi. Kitob o`qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo`q”, [3,9]- deya ta`kidlagan. Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan yoshlar orasida kitobxonlik madaniyati yanada yuksalmoqda. Insonni tarbiyalashda badiiy asarlarning o`rni beqiyos. She`riyatdagi o`zgarishlarni tahlil qilish va kuzatish orqali davr she`riyati haqida umumiy xulosalarga kelish mumkin. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida ko`plab ijodkorlar ijod qilganlar, ularning asarlari orqali biz hayotdagi o`rnimizni belgilab, ma`lum bir maqsadlar sari olg`a intilamiz. Bu davrda yaratilgan asarlardagi irfoniy g`oyalar orqali biz komillikka, ezgulikka, poklikka, zohiriy va botiniy olamni anglashga, diniy-falsafiy ohanglarni ilg`ashga yashashning mohiyatini bilishga intilamiz. Irfoniy g`oyalarning tarqalishi madaniyatimiz tarixida alohida hodisa bo`lib, o`ziga xos yo`nalish va an`analarga egadir. Irfoniy g`oyalar haqidagi ta`limot – islom dinini qabul qilgan mamlakatlardagi xalqlarning axloqiy, madaniy hayoti, falsafa va badiiy tafakkuriga sezilarli ta`sir o`tkazgan murakkab, ko`p qirrali diniy ta`limot. U ko`pincha adabiyot va falsafa g`oyalarini irfoniy tarzda aks ettiradi, ularning muhim qismi sanaladi. X asrdan boshlab irfoniy ilm mukammal she`riyat g`oyalari bilan qo`shilib ketib, uning mazmunini aks ettirdi, adabiyotning eng go`zal va nafis tuyg`usi orifona yo`nalishini boshlab berdi. Irfoniy g`oyalar ta`limotining maqsadi insonni ma`naviy, ruhiy jihatdan poklash ya`ni komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu ta`limotning keng tarqalishiga sabab, unda axloqiy komillik, ma`rifat, ilohiy ishq, go`zallik, nafasat, tafakkur ulug`lanishidadir. Irfoniy g`oyalar musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib bordi. Fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha nufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va olimlari irfon ilmidan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik g'oyalaridan ruhlanganlar. Shuning uchun ham irfon ilmi o`tmish adabiyotimizning buyuk vakillari Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, Jahon Otin Uvaysiy, Nodira, Sulaymon Boqirg`oniy, Alisher Navoiylar ijodiyotini harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo`lgan bo`lsa, boshqa shoir va yozuvchilarimizning ayrim asarlarining tug`ilishiga zamin yaratgan. Irfoniy

maʼrifiy ilm haqiqiy maʼnoda insonparvar taʼlimot hisoblanadi. Insonning kamoloti, ruhiy-maʼnaviy yuksalishi uchun qaygʻurib kelgan gumanistik taʼlimotlar rivojiga bizning vatandoshlarimizning hissasi beqiyos. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov alohida taʼkidlaganidek, “islom maʼrifati va madaniyati rivoji haqida gap borganda, biz “mana shu qutlugʻ zaminimizda tugʻilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq Gʻijduvoni, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Maʼnaviy hayotimizni mana shu ulugʻ nomlar bilan bogʻlaymiz Biz bu mutafakkirlarimizning qutlugʻ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand boʻlishiga, ularning mana shunday maʼnaviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk gʻoyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz.[3,120] Mustaqillik sharofati bilan diniy asarlarga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgardi. Irfon ilmiga oid nodir manbalar oʻrganildi, diniy-falsafiy ruh bilan yoʻgʻrilgan asarlar dunyo yuzini koʻrdi. Irfoniy ilmlarni oʻrganishdan maqsadi: komil insonni tarbiyalash boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi yosh avlod mumtoz va zamonaviy adabiy asarlarda ifodalangan gʻoyalarni anglashi, tushunishi, maʼrifiy mavzularning badiiy talqinidan xabardor boʻlishi, uning komil inson tarbiyasi uchun asos boʻlishidan dalolat beradi. Irfoniy gʻoyalar yoʻgʻrilgan adabiyot insonda shavqat, mehr-oqibat, shirinsoʻzlik, pokizalik, hayo, mardlik, halimlik, saxiylik, adolat, kamtarlik, gʻayrat, qanoat, sabr, xokisorlik, oqillik, ibodat, ilm, sabot, iroda, umuman, inson qalbini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohga yaqinlashtiradigan komil insonga xos barcha ezgu fazilatlarni singdirish bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida muhim oʻrin tutadi. Komil insonni tarbiyalashga chorlaydigan asarlardan namunalar oliy, oʻrta-maxsus, oʻrta-taʼlim oʻquv dasturlariga kiritilgan. Shu jumladan, biz tadqiq obyekti sifatida oʻrganayotgan ijodkorlar: Oʻzbekiston Qahramoni, Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodi

mustaqillik davri adabiyoti bo`limida o`rganilishi tadqiq qilinayotgan magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini oshiradi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda irfoniy g`oyalarning o`zbek she`riyatiga ta`siri, diniy tushunchalarning she`riyatda yangicha kashf qilinishi masalasini tadqiq etish tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dissertatsiyani yozishda irfoniy masalalariga bag`ishlangan diniy, ilmiy, badiiy manbalar hamda Abdulla Oripov va Asqar Mahkamning mustaqillik davrida e`lon qilingan she`riy to`plamlari va adabiyotshunoslarimizning ushbu ijodkorlar ijodi haqida yaratgan ilmiy tadqiqotlaridan foydalanildi. Tadqiqot ishining predmetini mazkur ijodkorlarning she`riy asarlaridagi falsafiy g`oyalar, mavzular, obraz va timsollar tashkil etadi.

Magistlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi. Zamonaviy she`riyatda istiqloq tufayli kirib kelgan irfoniy–falsafiy mavzu **rap** yaqqol ko`zga tashlanadi. Alisher Navoiyning “Arbain” asari o`zbek she`riyatida yangi bir yo`nalishga-hadislarni yaratishga turtki bo`ldi. Navoiyning hadislarga she`riy sharh yozish an`analari Abdulla Oripov ijodida muvaffaqiyat bilan davom ettirilayotganligining guvohi bo`lish mumkin. Asqar Mahkam va Abdulla Oripov she`rlarida Yaratganga iltijo, uning tabiat va insonning yaratuvchisi ekanligini ohang va talqinlarda ifodalashga bag`ishlangan asarlarini o`rganish, ular lirikasida poklik bilan nopoklik, ezgulik bilan razolat o`rtasidagi ziddiyatlar kurashining turli lavhalarda aks etishini tahlil qilish, she`rlardagi falsafiy qarashlarni obrazlantirishdagi badiiy mahorat, irfoniy qarashlarning an`anaviy va zamonaviy ko`rinishda ifoda etilganligini adabiy-badiiy jihatdan o`rganilganligi ushbu ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ijod-bu o`zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma`noda fidoyilik demakdir. Chinakam ijodkor odamlarning dard-u g`ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o`zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo`layotgan o`zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Mustaqil O`zbekistonning kelajagi ko`p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog`liq. Ana shunday har tomonlama yetuk insonlarni tarbiyalashda boshqa sohalar kabi adabiyot oldiga ham yangidan-yangi va jiddiy vazifalar qo`ymoqda. Yoshlarni mustahkam bilim asoslari bilan qurollantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini o`stirish, har bir narsaga, atrof-muhitga ijodiy va ongli yondashish ko`nikmalarini hosil qilish davrning muhim masalalaridan hisoblanadi. Komil insonni shakllantirishda g`oyaviy, axloqiy, nafosat ta`sir kuchini o`zida mujassamlashtirgan badiiy asarlar o`quvchiga tushunarli bo`lgan taqdirdagina o`zining tarbiyaviy ahamiyati, ta`sir kuchi to`liq namoyon etadi. Ma`rifiy g`oyalar tasvirlangan adabiyot komil insonni tarbiyalashda muhim vosita bo`lib sanaladi. Mustaqillik yillarida irfoniy g`oyalarga e`tibor kuchaytirildi, bu davrga kelib shoir va yozuvchilarimiz o`z asarlariga diniy-falsafiy g`oyalarni singdirishga alohida e`tibor bera boshladilar, natijada mustaqillik davri she`riyatida irfoniy tushunchalardan, obrazlardan, ramz va timsollardan ijodiy foydalanish muayyan darajada rivojlandi. Bu masalani ijodiy tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz uchun katta ilmiy ahamiyatga ega bo`lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ilmiy tadqiqot ishimizda quyidagi farazlar kelib chiqadi:

1. Irfoniy ruhdagi asarlar tarbiyaviy mohiyatga ega hodisa sifatida mustaqillik davrida ham badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim o`rin tutadi. Ular o`ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

2. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida falsafiy tushunchalar, ramz va timsollardan foydalanish badiiy asar ta`sirchanligini oshirishda, davrning dolzarb muammolarini ochib berishda keng imkoniyat yaratadi.

3. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida ijodkorlarning irfoniy mavzular va badiiy obrazlardan foydalanishi mumtoz va zamonaviy adabiyot munosabatlarining badiiy jihatdan qiyoslanishini, davr ijodkorlarining badiiy mahoratini o`zida namoyon etadi.

4.Irfoniy tushuncha va qarashlar ta'sirida milliy she'riyatimizning janriy tarkibi, ifoda uslubi, obrazlar tizimi boyib borganligini kuzatishimiz mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: Irfoniy g'oyalar o'ziga xos usul bilan insonni tarbiyalar, uni shak-shubhasiz, izlanish-qidirishlar yo'lidan boshlab, o'z xilqati, o'z mohiyati haqida o'ylashga o'rgatadi, insonga o'zini tanib, olamni va Ilohni sevishni ta'lim beradi. Dunyo ishlariga beparvo osoyishta qalbning fazoviy mushohadalari, tafakkur va xayol parvozi, koinot qatlamlari bilan yashirin suhbat qurib, ruhiy koinotlarning ajabtovur mo'jizalari, hikmat va donish ne'matidan bahramand bo'lish — tariqat ahlining saodati ana shunda edi.Uni o'rganishga intilish qadim o'tmishdan boshlab to hozirgacha qizg'in davom etmoqda.Istiqlol yillaridan boshlab irfoniy-diniy adabiyoti bilan shug'ullanishga keng yo'llar ochila boshladi.Nafaqat yurtimizda balki ,yevropa olimlari orasida ham falsafiy adabiyotga qiziqish kuchaymoqda. Amerika, Angliya, Fransiya, Germaniya,Rossiya,Turkiya kabi rivojlangan mamlakatlar olimlari ijodida ham irfoniy g'oyalar **ифодаланган** bo'lib, ushbu davr vakillari ijodini falsafiy, filologik,etnologik,tarixshunoslik fanlari nuqtai-nazari jihatidan tadqiq etib kelmoqdalar.Jahon olimlari ham irfon va uning nazariyasining o'ziga xos tomonlarini ,genezisini, olim va shoirlar ijodidagi ilmiy va badiiy talqinini o'rganishga katta ahamiyat qaratishgan. Bunga albatta, uning umuminsoniy g'oyalar talqiniga qaratilganligi asos bo'lgan.

Mavzuning o'rganilish darajasi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati milliy istiqlol sababli yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy mustaqillik milliy qadriyatlarimizni qayta tikladi, mafkuraviy yakka hokimlik asoratlarini cheklab qo'ydi, ijodiy erkinlikni ta'minladi, badiiy ijodda irfoniy g'oyalar keng tarqaldi, shakliy, uslubiy, mazmuniy jihatdan badiiy adabiyot yangilanishlarni qabul qildi. Mumtoz ijodkorlarimizning ilmiy va adabiy merosi ham ma'naviy-axloqiy ham ma'rifiy tomondan o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Mustaqillik davrida diniy-axloqiy g'oyalar adabiyotimizga chuqur kirib keldi. Qur'oni – Karimga, hadislarga murojat etish alohida tamoyilga aylandi. Jumladan, Abdulla Oripovning “Haj daftari“ turkumini, Tohir Qahhorning

“Muhammad bilan suhbat” lirik dostonini, Asqar Mahkamning “Naqshbandiya”, “Tavajjuh ”, “Ishq ” she`riy qissalarini, Sirojiddin Sayyidning “Qirq hadis “, Shukur Qurbonning “Unutmadum adolat rasmin“ she`riy turkumlarini ta`kidlash lozim. Zamonaviy o`zbek she`riyati yangi xususiyatlarga ega bo`ldi va ushbu davrda turli tadqiqotlar yaratildi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqiniga bag`ishlangan tadqiqotlarda asosan ushbu davr she`riyatining o`ziga xos xususiyatlari, irfoniy – falsafiy mavzularning yoritilishi,davr nuqtai nazaridan guruhlariga ajratilganligini kuzatish mumkin.

Tadqiqot obyekti sifatida o`rganilayotgan ijodkorlardan biri Asqar Mahkam hayoti va ijodi haqida mukammal monografik tadqiqot yaratilmagan. Shoir hayoti va ijodi haqida faqat xotira maqolalarda ma`lumotlar uchraydi. Abdulla Oripov hayoti va ijodiga oid turli tadqiqotlar yaratilgan bo`lib , ularda shoir ijodining murakkab qirralari, she`rlardagi mavzular olami kabi masalalar e`tiborga molik. N. Rahimjonovning “Mustaqillik davri o`zbek she`riyati” deb nomlangan asarida mustaqillik davridagi she`riyat masalasi tahlilga tortilgan, Kuchkarovning “So`fiy she`riyati “asarida mustaqillik davrida irfoniy g`oyalarning talqini masalasi tahlilga tortilgan. Abdulla Oripov ijodi adabiyotshunos olim Matyoqub Qo`shjonovning “Yillar armoni” to`plamiga yozgan “Kamalakdek serjilo” nomli so`zboshisida shoir ijodining tadrijiy rivoji, g`oyaviy ko`lamlarini juda aniq ko`rsatib beradi. Qo`shjonov M. va Suvon Meli birgalikda “Abdulla Oripov” nomli asar yaratganlar. Asarda shoir she`riyatining deyarli barcha qirralari tahlil qilinga. Adabiyotshunos Ozod Sharafuddinov ham shoir ijodiga bag`ishlangan “She`riyat – qalb yolqini “ nomli tadqiqoti da Abdulla Oripov ijodining o`zbek adabiyotida yangi bosqich ekanligini ta`kidlaydi va ijodkorning novatorligi, g`oyaviylik, tasvir doirasi ekanligini dalillar asosida isbotlaydi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov “Haq senga murod o`lsun...” maqolasida shoir she`rlarining g`oyaviy yo`nalishlari, uslub, tasvir usuli haqida fikr yuritadi. Egamqulova N.B. “Abdulla Oripov she`riyatining lingvopoetik tahlili” nomli dissertatsiyasida shoir ijodidagi mavzular olami , badiiy mahorat masalasi, shoir ijodidagi so`zlarning lingvopoetik xususiyatlari tasvirlanadi.

Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalar talqin etilgan ko`plab asarlar yaratildi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy mavzular va g`oyalar ,obraz va timsollarning badiiy talqinini o`rganishda N.Karimov, L.Sharipova , I.Haqqulov, B.Nazarov, H.Karimov, Q.Yo`ldosh, N.Rahimjonov, S.Meli, M.Xoliyorov, M.Qo`shjonov, M.To`laganov , U.Hamdani , M.Qarshiboyev, A.Hamdani , U. Normatov kabi adabiyotshunos olimlarning asarlari ilmiy –nazariy manbaa vazifasini bajaradi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy umumlashmalari va xulosalari ma`nan yetuk barkamol kadrlarni tarbiyalashda katta ta`sirga ega. Yosh avlodni tarbiyalashdagi ta`sirini qiyosiy –tahliliy , qiyosiy–tipologik aspektda mukammal o`rganishda o`ziga xos nazariy va amaliy ahamiyatga ega .Chiqarilgan ilmiy xulosalar mustaqillik davri o`zbek she`riyatida irfoniy mavzulardagi she`rlarining badiiy talqini yuzasidan ilmiy tadqiqotlar yaratishda nazariy manbaa bo`lib xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot ishida nazariy fikr-mulohazalardan oliy o`quv yurtlarida mustaqillik davri she`riyati bo`limi bo`yicha maxsus darslar o`tishda ma`ruzalar o`qishda , akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy - o`rta ta`lim maktablarida adabiyot danidan dars mashg`ulotlari olib borishda ,tasavvuf adabiyotini o`rganishga ishtiyoqi baland bo`lgan yoshlarga qo`shimcha o`rganish uchun ,ayniqsa, Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodlarini o`qitishda , usuliy qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining sinovdan o`tishi va joriylanishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi Buxoro davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasining maxsus yig`ilishida ,muhokama qilinib himoyaga tavsiya qilingan .

Ishning mazmuni yuzasidan 3 ta maqola va 1ta ilmiy risola chop ettirildi. Bular:

- Asqar Mahkam.(Iste`dodli shoir Asqar Mahkam siymosiga chizgilar)- T.:Navro`z,2016. 72 b.
- Asqar Mahkam she`rlarida tasavvufiy tuyg`ular talqini // “Tafakkur va talqin “ – T.:Durdona , 2017 .-B . 57-60.

- Abdulla Oripov she`rlarida komil inson xususiyatlari // “Tafakkur va talqin “ – T.:Durdoni , 2018 .-B . 83-86-bet.
- Abdulla Oripov she`rlarida shayton obrazi va uning falsafiy –diniy talqini // Filologiya masalalari .XI to`plam .- T.: Navro`z , 2018 .- B.47-51.

Ish tuzilmasining tavsifi. Ish kirish, uch asosiy bob ,xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan .

I BOB

O`ZBEK SHE`RIYATIDA IRFONiy MANBALAR BADIiyATI

I.1.O`zbek she`riyatida irfoniy g`oyalarning o`ziga xos xususiyatlari.

Istiqloldan keyingi o`zbek she`riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarildi. Xususan nisbatan ijodiy erkinlik darajasi, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi mafkuraviy yakkahokimlik asoratlarini bir qadar cheklab qo`ydi, badiiy izlanishlarning falsafiy-intellektual saviyasini oshirdi hamda shakliy-uslubiy mazmuniy miqyoslarni yanada boyitdi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov e`tirof etganlaridek “Xalqimiz ma`naviyatining, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo`lgan, kerak bo`lsa, uning o`zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an`analarga ega adabiyotimizning asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og`ir va mas`uliyatli mehnati barchamizning ko`z oldimizdan o`tadi”[3,9].Ajdodlarimizning boy ilmiy va adabiy merosi ham ma`naviy–axloqiy, ham ma`rifiy tomondan o`z ta`sirini o`tkaza boshladi. Har bir xalqning adabiyoti uning milliy ruhi, tafakkur tarzi, ustozlar tajribasi, axloqiy-ma`naviy, diniy-ilohiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. Shuning uchun ularni nazardan chetga surib adabiy jarayon mohiyatini belgilash ham, adabiy an`analarning badiiy ijoddagi roli va ahamiyatini to`g`ri baholash ham mumkin emas. Zero, badiiy ijodda ma`no, tuyg`u yoki haqiqat yo`q joydan kashf etilmaydi. Bunda din va falsafa, ma`rifat va ma`naviyat, tafakkur va axloqiy qadriyatlarning ham o`z o`rni va mavqei bo`ladi. Ana shu bois XX asr oxirlariga kelib til, tarix, din va tasavvuf ta`limotiga yangidan qiziqish ehtiyoji tug`ildi.

Tarixdan yaxshi ma`lumki, irfoniy g`oyalar o`zbek xalqining ijtimoiy, madaniy, falsafiy va adabiy hayotiga kuchli ta`sir o`tkazgan ta`limotlardan hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizning namoyandalaridan ko`pchiligi ma`lum bir tariqatning vakillari bo`lishgan. Bu esa o`zbek adabiyotidagi g`oya va obrazlar olamining kengayishi va boyishiga yordam bergan. Ma`lumki, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy, So`fi Olloyor singari ijodkorlarimiz sof diniy-tasavvufiy adabiyotning vakillari bo`lgan. Chunki, she`r ularga irfoniy fikr-qarashlar talqini va targ`ibi uchun muhim bir vosita edi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad

Bobur, Boborahim Mashrab singari san'atkorlarga esa falsafiy she'riyatni rivojlantirish uchun o'ziga xos bir fikr, tuyg'u manbai edi. Irfoniy g'oyalar rivojini faqat tarixiy tadrijiylikda ko'rib chiqish mumkin. Bu esa bevosita ilmi bilan bog'liq hodisa bo'lib, uni o'rganish orqali irfoniy g'oyalarni ham anglab borish mumkin.

Irfoniy g'oyalar tasvirlangan adabiyoti, xususan, she'riyatning irfon bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo'lmagan. Chunki, xuddi adabiyot singari irfon ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan. Bundan tashqari, filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, "Irfon bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni so'fiylar va ijodkorlarning ruhan yaqinligidan ham izlasa bo'ladi"[29,144]. Irfon tavhid mohiyatini anglashga insonning butun ruhiy quvvatini safarbar etadi, buning uchun esa avval ruhiy quvvatni jamlashga o'rganish kerak bo'ladi. Olim, so'fiylikdagi "jazba" iste'dodi bilan ijodkorlikdagi jazba muvofiqligiga diqqatni qaratib, yana shunday deydi: "Kishi qalbida Ilohni bilish muhabbati, Unga yetishish zavqi shu qadar kuchli bo'ladiki, u o'zini to'xtatib turolmaydi. Hamma narsani unutib, Mahbuba jamoliga talpinadi... Ana shu dard - jazba tushunchasi darveshlik bilan shoirlikni, keng ma'noda esa irfon bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Ya'nikim, darveshlik iste'dodi, g'ayri tabiiy xislatga molik bo'lishi shoirlarga ham xosdir demoqchimiz".[15,136]

Irfon tushunchasi haqidagi ta'limot madaniyatimiz tarixidagi g'aroyib bir yo'nalish bo'lib, o'ziga xos usul va an'analarga egadir. U ko'pincha adabiyot va falsafa g'oyalarini irfoniy tarzda, ya'ni ma'rifiy qiyofada aks ettiradi, shu bois ba'zan mazkur ilmlar qatorida tilga olinib, ularning asosiy bir qismi sanaladi. Masalan, X asrdan boshlab irfon haqidagi ta'limot professional she'riyat g'oyalari bilan qo'shilib ketib, uning bir yo'la mazmunini aks ettirdi, adabiyotning eng go'zal va nafis tuyg'usi-orifona yo'nalishini boshlab berdi. Shu bilan mumtoz adabiyotimiz mundariyasi bir necha tarmoqqa ajralib ketdi. Jumladan, adabiyotning maddohlik, diniy-mazhabiy, qahramonlik, ilmiy va siyosiy

yo'nalishlari rivoj topgan bir paytda, uning ma'rifatimiz va pand-axloqqa boy g'oyalari irfoniy ohang kasb etib, olamu odam qismati, koinot sirlari, ruhoniyyat masalasi, vahdatul-vujud muammosi, birlik va analhaq g'oyasi-umuman alloh va uni idrok etish, tanish va bilishi haqida bahs etdi. Badiiy ijodda ma`no, tuyg`u, haqiqat yo`q joydan kashf etilmaydi. Bunda din, va falsafa, ma`rifat va ma`naviyat, tafakkur va axloqiy qadriyatlarining ham o`z o`rni va mavqeyi mavjud bo`ladi. Shuning uchun ham XX asr oxirlariga kelib til, tarix, din, irfon ta`limotiga yangidan qiziqish kuchaydi. Ammo adabiyotning oshiqona va pandomuz mavzusi tasavvufga qattiq bog'lanib ketib, irfon ularning g'oyalari o'z maqsadlariga tobe etib, adabiyotning ichki imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalandi va uning yashirin va sirli ohangi va mag'zini ramziy tarzda ifodaladi. Mana shu tarzda mustaqil va maxsus bir fan irfon adabiyot bilan qo'shilib ketib, uning urfoniy va ma'rifiy-ma'naviy xususiyatlarini ta'sis etdi. Irfon ilk shakllangan davridan boshlab mustaqil bir ilm sifatida shakllandi va keyingi asrlarda maxsus tarixga ega bo'lib, o'z kelajagini asrab-avaylab mustahkamladi. XII-XIII asrlar tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va bu bosqich irfon bosqichi deb ataladi. Irfoniy g'oyalar va nazariyalar VIII-IX asrlardan oq shakllana boshlagan bo`lsa ham, faqat Imom Abu Hamid G`azzoliy ijodida islom ma`rifatchiligi davri yakunlangach, tasavvuf ta`limoti islom mintaqasida zafarli "yurish" boshladi va borliqni idrok etishning Irfon yo`nalishi uzil-kesil yetakchi o`ringa ko`tarildi.

Irfonga berilgan ta`riflar uning ma`no mazmunini belgilab beradi. Muhammad bin Ali bin Husayn bin Ali bin Abutolib degan ekanlar: "Irfon bu ezgu xususiyatli bir kasb deganidir, har kimki ezgu tabiatli bo'lsa, u yaxshiroq so'fiy bo'lishi mumkin va ezgu tabiatlilikning ikki tomoni bor: biri xalq bilan hamjihat bo'lish bo'lsa, ikkinchisi haq bilan bo'lishdir". Keyingi mutasavvuf shayx Abulhasan Nuriy "Irfon rasmiyatchilik emas, axloqdir. U ozodlik vositasidir va bu vosita ila bandalar hoyu havas bandidan ozod bo'ladilar". Shayx Ali bin Bindor as-Sayrofiy an-Nishopuriyning aytishicha, "irfon shunday narsadirki, uning egasi ham zohirda va ham botinda o'zini ko'rmaydi va faqat haqni ko'rib va u bilan yashaydi", Ibn Holdun: " Irfon ibodatda astoydil davom

etmoq, Allohga yo'nalmoq, dunyoning bezak va yolg'onchiligidan yuz o'girmoq, ko'pchilik e'tibor beradigan zavq, mol-dunyo va shon-shuhratdan ham yuz o'girish, ibodat uchun xalqdan ayrilib, xilvatga kirishdir". Abu Ali ibn Sino "Irfon bu kamolot darajasiga yetishgan Ruhning buyuk sevinchidir. O`ziga xos Aql, Oqil va Ma`qul bo`lgan ollohdan chiqqan ma`qullarni, ya`ni sarvari koinot ato etgan sifatlarni bilmoq va tushunmoq irfon demakdir"[29,38] Yuqoridagi ta`riflardan shu narsa aniq bo`ladiku, har bir olim irfonni o'z dunyoqarashiga muvofiq tarzda ta'riflagan. Bu tabiiy, negaki, irfon har bir so'fiyning ichki olamidagi ruhiy jarayon bo'lib, yolg'iz yashash tarzi va hissiyotiga taalluqli alohida bir sohadir. Shu bois har bir so'fiy o'zining usuli va darajasiga ko'ra irfonning ma'lum jihatini bayon etganki, bir so'fiyning irfon haqidagi ta'rifi boshqasidan farqli bo'lishi tabiiydir. Ta'riflarning farqli bo'lishi, so'fiylarning ma'naviy martabalari, tabiatidagi farqlar tufayli ham yuzaga kelgan. Sirdan bir-biridan farqli ko'rilgan bu ta'riflar diqqat bilan tekshirilsa, har biri irfoniy ilmni to'g'ri izohlaganligi va bu ta'riflarning mushtarakligi aniq ko'rinadi. Mazkur ta'riflardagi umumiy mushtarak xususiyatlar quyidagilardir:

- a) dunyodan yuz o'girib, qalbni Allohga yo'naltirish;
- b) qur'on va sunnat ko'rsatgan yo'lda astoydil ibodat qilib, ruhiyatni soflash;
- v) ibodat, zikr, tafakkur, riyozat va mujohada orqali nafsning orzularini nazorat ostiga olish;
- g) Haqiqat bilimini qo'lga kiritib, Allohga yetishmoq uchun g'ayrat ko'rsatish.

Fikrlarimizni umumiy qilib ta'riflaganda: "Irfon inson qalbidagi yomon sifatlardan xalos bo'lish choralarini o'rgatuvchi, qalbdagi ezgu sifatlar va ularni qo'lga kiritish yo'llarini ko'rsatuvchi, ma'naviy martabalarni bosib o'tib, eng yuksak martaba bo'lmish komil inson maqomiga erishmoq qoidalarini o'rgatuvchi va nihoyat, tavhid sirlarini bayon etuvchi bir ilmdir", -deyishimiz mumkin. Irfon va tasavvuf haqida bir qancha risola va kitoblar yozildi, irfoniy g'oyalarini qizg'in targ'ib etuvchi ulkan she'riyat vujudga keldi. Irfon ilmiga oid nazariy kitob va qo'llanmalardan Abu Nasr Sarrojning "Kitob al-luma", Abu Ishoq Kalobodiyning "At Ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf", Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-ta'arruf

li-mazhab at-tasavvuf”, Abu Tolib Makkiyning “Qut ul-qulub”, Sutlamiyning “Risalat al-malomatiya”, Qushayriyning “Risola fi at tasavvuf”, Al-Hujviriyning “Kashf ul-mahjub”, Abdulloh Ansoriyning ”Manozil us-soirin”, Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» nomli asarlarini ko'rsatish mumkin.

Irfon ta`limotida moddiy dunyoni deb ilohni unutmazlik juda zarur bo`lishi ta`kidlanadi. Bu ta`limot tarkibida shakllangan tariqatlar, ularning bosqichlarida turli-tumanlik, farqli jihatlar kuzatilsa-da, ammo maqsad yagona ya`ni ruhni asl makoniga qaytarish, o`zlikdan kechish bilan haqiqiy o`zlikka erishish, insonning ilohiylashuviga yetishishdir. Irfoniy she`riyat o`zining obrazlar tizimi orqali aslida yangilik yaratmagan bo`lsa hamki, u yaratuvchanlikning yangi yo`lini yaratdi. Irfon xoh xalq og`zaki ijodiyoti, xoh yozma adabiyot, xoh din qayerdan poetik obraz uchun so`z yoki atama olmasin, ularning barchasiga botiniy ma`no baxsh etadi. So`zlar va timsollardagi botiniy ma`noni anglash o`quvchidan katta tajribani talab etadi. Asarlardagi “gul”, “bulbul”, “sham”, “parvona”, “qatra”, “bulut”, “dunyo”, “may”, “yor” kabi odatiy timsollar orqali ham xudo va insonlar orasidagi birlik, yaqinlik, fano, baqo, botiniy tushunchalar tasvirlanadi. Bu tushunchalarni asarda ikki xil tushunish mumkin. Ulardan biri tasvir tamoyiliga mansub she`riy matn bo`lsa, ikkinchisi mazmun talqini zamiridan hosil bo`ladigan ma`no tasavvufiy matn. Irfoniy she`riyat namunalarini o`rganganda har ikkala matndan ijodiy foydalanish maqsadga muvofiq. Irfoniy she`riyatida asosan o`tmish mavzusi tasvirlanadi, tarixiy hodisa sifatida bir necha asrlar mobaynida o`z qimmatini va ahamiyatini saqlab kelgan jihatlar bilan bir qatorda, bugun uchun ahamiyatli jihatlari juda ko`p bo`lib sanaladi. Ular quyidagilarda ko`rinadi:

- Irfoniy ilm o`zbek xalqining uzoq davr mobaynida boy madaniy va adabiy merosini chuqur bilishida, ma`naviy qadriyatlarning g`oyaviy–badiiy fazilatlarini tadqiq etib, xulosalar chiqarishga yordam beradi.
- Mashhur shoirlar ijodini puxta bilishi Sharq va G`arb mamlakatlari o`rtasidagi ilmiy, madaniy, adabiy aloqalar xususida keng va mukammal ma`lumotlar olish mumkin.

- O`zining rivojlanish asosini ma`rifat va madaniyatda deb belgilagan mustaqil O`zbekiston ta`lim va tarbiya masalasida ham tarixiy bir vazifani olganki, bu oqil, dono, bilimdon, tashabbuskor, vijdoni pok, tashabbuskor vatanparvar, komil insonni tarbiyalash kabi vazifalarni o`z ichiga oladi. Adabiyotshunos, professor Ibrohim Haqqul irfon ilmiga oid quyidagi fikrni aytgan: “Inson hayoti nechog`lik o`tkinchi, kulfat va mashaqqatlarga to`la bo`lmasin, u komillikka intilishi shart. Kamolot yo`liga tushgan insonni vijdon ruhiy og`riqlarga giriftor etib , alamga yuzma-yuz qilib qo`yadi, yurakni gunoh va qo`rquv , shubha va ishonch oralab olib o`tadi. Uyg`oq vijdon eng oxirgi chegaralargacha odamni yog`dulantiradi. U erkin ruh bilan yashash sirlarini ochadi, aqliy toliq ishlarini yengib, mutelik zanjirini sindiradi. Bu vijdon eng noiloj , eng kulfatli vaziyatlarda ham yo`lsizlikdan xalos etadi. Bu shaxsning o`z vijdoniga borish yo`li deb atasa to`g`ri bo`ladi. Shu yo`lni topgan odamgina Xudoga intiladi. Talpingan sayin esa o`ziga nisbatan murosasizliklari ortadi.”[17,230]-deb yozadi adabiyotshunos olim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, irfoniy g`oyalar Sharq adabiyotshunosligining fikriy taraqqiyotida ko`p asrlik tajribalarni qamrab olib, uni rivojlantirdi, din, falsafa, hikmat, vahdat, kalom, hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o`zaro bog`lashga harakat qiladi. Irfon xalq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylana bordi. Asrlar o`tishi bilan irfoniy g`oyalar ta`limoti o`zbek she`riyatining asosiy manbalaridan biri bo`lib kelmoqda. **Adabiyotshunoslarimizning tasavvufiy manbalardan foydalanishi orqali ilohiy-irfoniy g`oyalarning targ`ib qilish va ular orqali yosh avlodni tarbiyalash vazifasini so`z san`ati orqali bajarib kelmoqdalar.** Sovetlar davrida ilmiy mantiqiy tafakkur ham, irfoniy g`oyalar ham atayin islomga zidlashtirildi, natijada, bugungi kunda tasavvuf she`riyatining rivojlanish tadrijini tushunish ancha murakkablashmoqda.

I.2. Mustaqillik davri she`riyatida irfoniy ohanglarining badiiy talqini. (Abdulla Oripov, Asqar Mahkam)

XX asrning so`nggi choragi arafalari O`zbekistonda ham istiqloq talabining qaytadan keskinlasha borishi, bu g`oyani amalga oshirish uchun kurash hamda unga erishish kabi murakkab bir ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy-ma`rifiy jarayon davri bo`ldi. Bu borada milliy ziyolilarning, xususan, ijod ahliga e`tibor yanada kuchaydi. Aynan XX **asrning** so`nggi choragida o`zbek xalqi o`z taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy bir bosqichini yakunlab, yangi bir bosqichga qadam qo`ydi. Bu yangi davr siyosiy jihatdan mustaqillikning qo`lga kiritilishi; ijtimoiy va iqtisodiy hayotning yangilanishi; ma`naviy-ma`rifiy sohada inson tafakkurida teran evrilishlarning sodir bo`la boshlashi, milliy qadriyatlarning tiklanishi, jamiyatning barcha sohasida qadimiy va boy an`analarning yangi tarixiy jarayonda rivojlantirilishi bilan xarakterlanadi. XX asrning 70-80-yillariga kelib adabiyotda yangi bir to`lqin sezila boshladi. Bu davr shoirlari ijodida mumtoz adabiyot an`analariga va milliylikka intilish kuchaya bordi, yangicha adabiy tafakkur shakllanib, badiiy obrazlar silsilasida turmushni tubdan o`zgartirishga da`vat etuvchi zamonaviy qahramonlar maydonga chiqdi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatiga xos xususiyatlarni adabiyotshunos Ulug`bek Hamdamning “Yangilanish ehtiyoji” asarida quyidagi guruhlariga tasniflaydi :

- Ishqiy ,intim mazmundagi she`rlar (buning ichiga yor jamolining go`zalligi-yu,unga intilayotgan oshiqning quvonch-u azoblaridan tortib hijron iztirobigacha, ba`zan visoldan tamoman umidi uzilgan mashuqaning afsus nadomatigacha as etgan she`rla kiradi.).
- Intim mazmunli she`rlar (buning ichiga shoirning sevgi- muhabbat va uning sabab –oqibatlaridan boshqa ko`ngilning har turli ko`pdan –ko`p mayl va intilishlari ,injiliklari aks etgan she`rlar kiradi.
- Madhiya ,bag`ishlov she`rlar
- Uhroviy mazmundagi she`rlar (buning ichiga dunyoning o`tkinchiligiga, umrning g`animatligi ,banda va xudo o`rtasidagi munosabatlar,

Yaratganga iltijo ,oxirat va uning qayg`usi haj taassurotlarini aks etgan hamda shu mazmundagi boshqa tasavvufona she`rlar kiradi.)

- Tarixiy mazmundagi she`rlar (bunga o`tmishda o`tgan buyuk bobokalonlar siymolari va xizmatlari ,tarixiy va muqaddas joylar,udumlar, shaharlar aks etgan she`rlar kiradi.)
- Pand –nasihat she`rlar
- Vatan va uning mustaqilligi haqidagi she`rlar
- O`lim mavzuidagi she`rlar
- Boshqa har xil mavzudagi she`rlar [19,86]

Yuqoridagi tasnif umumiy bo`lib uni istagancha kengaytirish yoki yaxlitlash mumkin.Istiqlol davri she`riyatini bevosita ko`ngil she`riyati deb atash mumkin. Bu davr she`riyatida mavzular olamining rang-barangligi bilan ham xarakterlanadi.Lekin u g`oyadan g`oyaparastlikdan ancha uzoqlashdi.Bu davrda she`riyat har xil daraja va shakllarda intilib kelgan asosiy, mavzu : istiqlol, yurt ozodligi, millat g`ururining tiklanishi, yurtning istiqloli kabi mavzular ham kuylandi, biroq she`riyat o`z nigohini tashqaridagi muammolardan olib, ichkariga ya`ni botinga qaratdi.Endi she`riyatda shoir o`z ichki kechinmalarini kuylashiga zamin yaratib berildi.Bu davr she`riyati inson haqida, uning his-tuyg`ulari, ichki kechinmalarini, intim tuyg`ularni kuyladi. Ayni paytda, istiqlol davri she`riyati faqat ko`ngilning intim kechinmalarini kuylash bilan chegaralanib qolgani yo`q. A.Oripov, T.Mahmud, S.Sayyid, I.Mirzo, M.Mirzo kabi o`nlab shoirlar ijodida ona-vatan, o`tib ketgan ulug` bobokalonlar, milliy g`urur, urf-odat madhi, o`zbekning hech kimdan kam emasligi kabi mavzulari ancha baland pardalarda kuylandi. Istiqlol davri she`riyatiga xos xususiyatlardan yana biri bu so`zning haqiqiy ma`nosida o`zining subyektiv yondashishidir. Shoir uchun faqat o`z olami va bu olamda faqat o`zigagina aloqador dardlari bor, boshqa hech narsa shoir ko`nglini bezovda qilishga qodir emasdek go`yo.So`zning o`z ma`nosiga subyektiv yondashishining salbiy xususiyatlari bor. Salbiy xususiyati millat dardi, xalq manfaatlari, ozodlik, istiqlol mavzulari yetarli darajada kuylanmayapti, shoirning dardi xalq qayg`usi bilan mos kelmayapti, shoir qalbidagi intim tuyg`ularni

tasvirlash bilan cheklanyapti,xolos.Istiqlol davri she`riyatiga xos xususiyatlardan yana biri bu davrga kelib modernistik she`riyat paydo bo`ldi. Bu yo`nalishdagi she`rlarda voqeabandlikdan , tasvirdan ,bayondan deyarli voz kechish buning o`rniga metafora va detallarga urg`u berish,siqqlik, butun haqida parcha orqali ma`lumot yetkazish , shaklda o`ziga xoslik, shaklning emas g`oyaning ustun bo`lishi kabi xususiyatlar ko`zga tashlanadi. Milliy mustaqillik sababli ma`naviy qadriyatlarga ,madaniyatga ,milliylikka ,jumladan , so`z san`atiga munosabat butkul o`zgardi. Mustaqillik nafaqat adabiyotimiz tarixiga , balki zamonaviy badiiy ijodga ham yangicha g`oyaviy –estetik ruh bilan yondashishni talab etdi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatining badiiy salohiyati yuqori darajada rivojlandi.Hozirgi o`zbek adabiyotida lirikaning o`rni yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi.Mustaqillik davri o`zbek she`riyatining mavzu ko`lami juda katta bo`lib ,unda zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg`ularni aks ettirish barobarida, she`riyat jamiyatimizning har bir a`zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo`lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy o`zbek she`riyatining tabiati va uning tarkibidagi falsafiy g`oyani ochib berish , uning yetakchi g`oyaviy –badiiy tamoyillarini aniqlash ,o`zbek she`riyatining kelajakdagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyati sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarildi.Ijodkorlar erkin bo`lib o`z qalb kechinmalarini baralla aytishlariga imkon paydo bo`ldi , milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi mafkuraviy yakkahokimlik asoratlarni cheklab qo`ydi,badiiy ijodning falsafiy saviyasi oshdi.Ajdodlarimizning ilmiy-adabiy merosi xalqimizning ma`naviy,madaniy,badiiy jihatdan yuksaltirdi.Uzoq izlanishlar natijasida diniy-falsafiy mavzular badiiy adabiyotga qayta kirib keldi.Badiiy adabiyotdagi bunday sifat o`zgarishlariga sabab sho`rolar hukmronligi davrida zararli deb topilgan asarlarning qayta nashr etilishi bo`ldi.Bunday o`zgarishlar Qur`oni Karimning o`zbek tiliga tarjima qilinishi ,payg`ambarimiz hadislarining nashr etilishi ,islom dinining yirik namoyondalari At-Termiziy ,Imom Moturidiy, Imom al-Buxoriylar,Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy,So`fi Olloyor, Mashrab,

Bedil, Rumi kabi tasavvuf shoirlari asarlarining nashr etilishi soʻz sanʼatiga yangi sof, falsafiy ,xalqona ohanglarni olib keldi.Hozirgi oʻzbek sheʼriyatidagi oʻzgarishlar ,yangilanishlar milliy mustaqillikning qoʻlga kiritilishi sababli milliy tafakkurda paydo boʻlgan oʻzgarishlarga bogʻliq.Milliy –badiiy tafakkurning yangilanishi sababli 90-yillardan boshlab oʻzbek adabiyotida badiiy asar tili , adabiy matnning qurilishi ,ritm, qofiya , sheʼriy sanʼatlarni qoʻllash avvalgidan yangicha ahamiyat kasb etdi.Bu davrda ruhni anglatishga boʻlgan intilish ,ziddiyat va qarama-qarshiliklar mohiyatiga kirib borishga harakat ranglar uygʻunligi ,tasvirning quyuqroq boʻlishiga ,insonning ichki tuygʻularini, intim kechinmalarni tasvirlashga eʼtibor kuchaydi.

Mustaqillik davriga kelib falsafiy ohanglari sheʼriyatimizga kirib keldi.Bu sheʼriyat maʼnaviyat , maʼrifat tuygʻulari bilan sugʻorilgan boʻlib, falsafiy teranlik ufurib turadi. Irfoniy gʻoyalar tasvirlangan asarlar asosan ollohning muqaddas kitobi Qurʼoni Karim va paygʻambarimiz sunnatlari tomonidan yaratilgan hadislardan taʼsirlanib yaratilgan .Ushbu yoʻnalishdagi asarlarga Abdulla Oripovning “Haj daftari ” turkumini ,Tohir Qahhorning “Muhammad bilan suhbat” lirik dostonini , Asqar Mahkamning “Navroʻz “, “Tazarru”, “Tavajjuh ”, “Ishq ”, “Ibodat ”, “Iblisning halokati ”, “Toʻrt darvesh ”,Sirojiddin Sayyidning “ Qirq hadis ”,Shukur Qurbonning “Unutmadim adolat rasmin ”kabi asarlarni keltirish mumkin.Irfoniy gʻoyalar odamdagi odamiylik xislat –fazilatlarini kashf etish orqali shaxs va jamiyatni komillikka undaydi,axloqiy poklik ,maʼnaviy pokdomonlik xususiyatlarini koʻngillarda tarbiyalashga ,shaxsiyatlarda shakllantirishga yangi badiiy talqinlari bilan ahamiyatli.Ushbu yoʻnalishdagi asarlarda komil insonning buyuk timsolini yaratish,bandalarni axloqiy qusurlardan forigʻ qilish, insoniyat xoxishiga qarab ishq, erk , iymon, eʼtiqod kabi muqaddas tushunchalarni asarda qoʻllash ,koʻngilni osmon qadar koʻtarish bosh maqsadi boʻlib sanaladi.

BOB BOʻYICHA XULOSALAR:

- Diniy- axloqiy g`oyalarni adabiy janrlarning turli shakllarida asosan she`riyatda aks ettirish mustaqillik davri adabiyotining muhim xususiyati bo`lib sanaladi.
- Istiqol davri adabiyotida –islom dinining muqaddas manbalari Qur`on va Hadislarga murojaatnoma asarlar ko`paydi.
- Mustaqillik davri o`zbek she`riyatidagi yangiliklar ,shakliy,ma`noviy izlanishlar mustaqillikning qo`lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo`lgan o`zgarishlar bilan bevosita bog`liq.
- Ushbu davr ijodkorlari asarlarida falsafiy ohanglar yorqin namoyon bo`ladi. Ularni kuzatish orqali irfoniy adabiyotining naqadar murakkab va mazmundor ekanligini ko`rishimiz mumkin.
- Irfoniy g`oyalar tasvirlangan she`rlarda asosan ijodkorning kechinma va ruhiyatiga e`tibor kuchayishi shakliy izlanishlarning ko`payishiga olib keldi.

II BOB. ABDULLA ORIPOV SHE`RIYATIDA IRFONiy G`OYALAR TALQINI

II.1.ABDULLA ORIPOV IJODIDA IRFONIY G'UYALARNING AKS ETISHI.

Har bir xalqning adabiyoti uning milliy ruhi, tafakkur tarzi, ustozlar tajribasi, axloqiy-ma'naviy, diniy-ilohiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. Badiiy ijodda ma'no, tuyg'u yoki haqiqat yo'q joydan kashf etilmaydi. Bunda din va falsafa, ma'rifat va ma'naviyat, tafakkur va axloqiy qadriyatlarning ham o'z o'rnini va mavqei bo'ladi. Ana shu bois XX asr oxirlariga kelib til, tarix, din, falsafa ta'limotiga yangidan qiziqish ehtiyoji tug'ildi. Irfon o'zbek xalqining ijtimoiy, madaniy, falsafiy va adabiy hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ta'limotlardan hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizning namoyandalaridan ko'pchiligi ma'lum bir tariqatning vakillari bo'lishgan. Bu esa o'zbek adabiyotidagi g'oya va obrazlar olamining kengayishi va boyishiga yordam bergan.

Ma'lumki, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor singari ijodkorlarimiz sof diniy-falsafiy adabiyotning vakillari bo'lgan. Chunki, she'r ularga irfoniyl fikr-qarashlar talqini va targ'ibi uchun muhim bir vosita edi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari san'atkorlarga esa irfoniyl she'riyatni rivojlantirish uchun o'ziga xos bir fikr, tuyg'u manbai edi.

Irfon ilmining adabiyot, xususan, she'riyatning irfon bilan yaqinlashuvi tasodifiyl hodisa bo'lmagan. Chunki, xuddi adabiyot singari irfon ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan.

Abdulla Oripov she'rlari e'lon qilina boshlashi bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ham adabiy tanqidchilar, ham she'riyat muxlislari shoir ijodining ilk davridanoq o'zbek nazmi osmonida yana bir "mitti yulduz" paydo bo'lganligini payqagan edilar. Adabiyotshunos olim M. Qo'shjonovning "Yillar armoni" to'plamiga yozgan "Kamalakdek serjilo" nomli so'zboshisida shoir ijodining tadrijiyl rivoji, g'oyaviyl ko'lamlarini juda aniq ko'rsatib beradi. Adabiyotshunos Ozod Sharafuddinov ham shoir ijodiga bag'ishlangan "She'riyat – qalb yolqini" nomli maqolasida Abdulla Oripov ijodining o'zbek adabiyotida

yangi bosqich ekanligini ta`kidlaydi va ijodkorning novatorligi, g`oyaviylik, tasvir doirasi ekanligini dalillar asosida isbotlaydi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov “Haq senga murod o`lsun...”maqolasida shoir she`rlarining g`oyaviy yo`nalishlari, uslub, tasvir usuli haqida fikr yuritadi. Abdulla Oripov, shubhasiz, so`z ahlining yuksak maqomiga ko`tarila olgan ijodkor. Shoir hech bir zamonda eskirmaydigan she`rlar yozdi. Uning asosiy yutug`i mumtoz adabiyotimizni ham, zamonaviy adabiyotni ham teran bilishida, ijodida milliy adabiyotimizning yuksak maqomini taminlagan yutuqlardan samarali foydalana olishidadir.[88,15]

Shoirning mahorati aruzda ham, barmoqda ham birday namoyon bo`layotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Abdulla Oripov ijodi haqida turlicha fikrlar mavjud bo`lib, ularning har biri o`ziga xos. Chingiz Aytmatov “Katta shoir hamisha o`z vaqtida maydonga keladi, u- hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o`z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir. Biroq, eng asosiysi, u- o`z davrining hakami va kuychisi, u- jarchi va faylasuf, u- so`z sehgari va uzlatga chekingan mutafakkir darvesh. Bularning bari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli va shu bilan birga, ko`tarinki, teran ma`nolar mohiyatini ifodalash uchun ato etilgan. Shu bois shoirning so`zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradilar. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo`ygan davrlarimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo`lib gavdalanadi. “Qaysin Quliyev Abdulla Oripov so`zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o`z bilishicha, o`ziga xos yangi nazar bilan ko`radi. Abdulla Oripov she`rlari bilan har bir uchrashuv she`riyat bayramiga aylanib ketadi.”, Yevgeniy Yevtushenko “O`zbeklarga xos donishmandlik, bag`rikenglik, xokisorlik va andisha Abdulla Oripov poeziyasiga singib ketgan, “O`ljas Sulaymonov “Abdulla Oripov lirikasida qadimiy o`zbek she`riyatiga xos eng go`zal jihatlar mujassamlashgan. U o`zbekning ramzi bo`lgan ijodkor”, Ustoz Ozod Sharafiddinov bunday ta`kidlagan edi: “...Men adabiyotshunos sifatida Abdullajonning ijodidan uch- to`rtta maqola e`lon qilganman-u, lekin uning ijodini har tomonlama tadqiq etuvchi, XXI asr she`riyatida, qolaversa, jahon she`riyatida Abdulla Oripov fenomenini to`la bo`lmasa-da bir qadar mukammalroq ochib

beradigan durustroq bir maqola ham yozgan emasman. Har gal bu ishga kirishmoqchi bo`lganimda, bu she`riyat qarshisida qalamimning benihoya ojizligini his qilardim”, Mirtemir “Abdulla Oripov. Shoir! Shoir bo`lganda ham anov – manovlardan emas. Xudo butun qilib berganlardan. Zo`r !”

Haqiqatdan ham shunday. Abdulla Oripovning eng yangi she`rlari ham bu fikrni tasdiqlaydi. Istiqlol shoir ijodida yangi bosqichni boshlab berdi desak, also mubolag`a bo`lmaydi. Abdulla Oripov she`riyati mudom mazmunan teranligi, shaklan mukammalligi bilan she`riyat muxlislarini hayratga solib kelayotir. Professor Begali Qosimov “O`zbek adabiyotining so`nggi 30-40 yili, mubolag`asiz aytish mumkinki, Abdulla Oripov she`riyati ta`sirida kechdi. U, ustozlarimiz ta`kidlaganidek, she`riyatga yonib kirdi. Ilk she`rlari bilanoq adabiyotimizning mazmun va yo`nalishida burilish yasadi. Sho`ro mafkurasining karnayiga aylanib qolgan “yashasin”chilik she`riyatiga yangi ruh olib kirdi... To`g`ri , o`zbek she`riyati bugun bir oz o`zgacha yo`nalishlarga ham rag`bat ko`rsatmoqda . Lekin aminman: nazm daryosi asl o`zaniga - she`riyatda Abdulla Oripov yaratgan maktab an`analariga qaytajakdir”.

O`zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov “Eskirmas, to`zimas so`z sohiblaridan biri Abdulla Oripovdir. Uning ilk she`rlari xalq qalbiga qanday aks – sado bergan bo`lsa, eng yangi satrlari ham shunday sehrlil qudrat bilan jaranglab turibdi”. [42,33]

Irfoniy g`oyalardan biri komil insonni tarbiyalash bo`lib, komillik bu insonning har tomonlama mukammalligini bildiradi. Islom dini va irfon nuqtai nazaridan yondashilsa, komil insonning belgilari quyidagilar:

1. U insonni hamma yaxshi ko`radi, u ham hamma insonlarga yaxshi muomolada bo`ladi.
2. O`ziga yoqtirgan narsalarni boshqalarga ham ilinadi. O`zi yoqtirmagan narsalarni boshqa birorta insonga ravo ko`rmaydi.

3.Hojatbaror bo`lib, hammaga yordam berib yuradi.Ya`ni o`z tirikchilik va tashvishlardan ortib, atrofdagilarga, jamiyatga, vatanida foydasi tegadi.

4 .Do`stlikda ,muhabbatda , vafodorlikda go`yo suvga o`xshaydi.Bir kosa sutga bir kosa suv quysangiz ,suv ham sutning rangiga o`tib ketadi, o`z rangidan asar ham qolmaydi.

5.Himoyachi bo`lib ,o`z yaqinlariga zarar yetkazishdan saqlaydi.Ammo o`ziga qilingan yomonlikni kechirib yuboradi,qasos olmaydi.

6.Uning qo`lidan va tilidan hech kim zarar ko`rmaydi.Boshqalar uning qarshisida doim xotirjam bo`ladi.

7.Sofdil,xatolaringizni ko`rib, bilib turadi.Biroq u haqida sizga va atrofdagilarga axborot bermaydi. Bular komillikning xususiyatlari bo`lib ,ularning qatorini istalgancha kengaytirish mumkin.

“Sadag`angiz ketay momo ,

Siz chiroysiz olamga ,

Bir soatlik ichim chiqdi

Qarab turing bolamga”yoki

“Go`zallarning go`zali Momo Havo

Asallarning asali Momo Havo

Barchamizga mehribon Momo Havo

Hammamizga jonajon Momo Havo

Kazolardan kazosiz Momo Havo

Hokazo hokazosiz Momo Havo”yoxud yana bir o`rinda shunday keltiradi:

“Dengizlardan dur keltirdim,

Boqing men benavoga

Tezda qaytib keladurman

Ishim bitgan aytarli”

Siz bolamga qarab turing

Yarim soat yetarli “[84,234]

Shoir she`rlaridagi shayton obrazi zulm timsoli bo`lib, shayton odamlar ruhiyatiga kirib ularni yomonliklar sari yetaklaydi. U turfa qiyofalarga kirib o`zini yashiradi, o`zligini oshkor etmaydi. Momo Havoni yo`ldan urgan shaytonni turli jazolar bilan Odam Ato qiynaydi, lekin har safar shayton qutulib qoladi. She`r yakunida Odam Ato shayton bolasini o`ldirib uni qovurib yeydi:

“Bu safar u na cho`ktirdi,

Na kulini sovurdi.

Shaytonchani to`g`rab –to`g`rab

Qozonida qovurdi.”

Shoirning bunday voqeani tasvirlashidan maqsad shu voqeadan boshlab shayton inson qoniga kirib uni turli yovuzliklar qilishga undaydigan ichki kuchdir. Shaytonning eng oliy maqsadi inson ko`nglidan rahmonni quvib chiqarib, uning o`rnini egallash .U shu maqsadni amalga oshirish uchun yer yuziga yovuzlikni tarqatishga harakat qiladi :

“Ko`rdik qancha shaytonlikni ,

Qancha shayton insonni

Chiqarolmay ovvoramiz,

Qonimizdan shaytonni ...

Islom diniga ko`ra yomonlik manbaalaridan biri bu shayton bo`lib , u biz ko`rolmaydigan, mavjudligi Qur`oni Karimda bildirilgan maxluq . “Fotir “surasida

shunday deyilgan “Aniqki shayton sizlarga dushmandir ,bas uni dushman tutinglar” Shayton inson ustidan qat’iy bir hukm yurgizolmaydi, o`z hukmini o`tkazolmaydi: “Albatta ,ymon keltirgan va yolg`iz Oллоhga tavakkul qiladigan zotlar ustida (shayton) uchun hech qanday saltanat ,hukmronlik yo`qdir.Uning (shaytonning)hukmronligi faqat (uni) do`st tutib,(Oллоhga)sherik qilib oladigan kimsalar ustidadir.”[27,204]Oллоhga tavakkul qilish irfonda maqomot va hol tushunchalari mavjud bo`lib,maqomot bu so`fiyning ruhiy ma`naviy kamolot bosqichidir.Tariqat maqomlaridan biri bu Oллоhga tavakkul qilish bo`lib sanaladi. Tavakkul bu barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni xudodan deb bilish, parvardigorga suyanish, ma`rifat kamolidan keladigan oliy maqomdagi iymondir.Najmiddin Komilov unga shunday ta`rif berilgan:barcha hollarda va amallarda Oллоhga suyanish o`zini bir faoliyat asbobi hisoblash, barchani xudoga topshirib ,Xudodan o`zga narsalar ham Xudodan ekaniga chuqur ishonish .Inson juda ko`p narsalarni qila oladi,ammo bu harakatlarning bari Ulug` Tangri qudrati tufayli,qudratining namoyon bo`lishi ekanini anglash shart.Tavakkul –ymon haqiqatidir. Tasavvufda dunyo ramziy timsol bo`lib u shaytoniy istaklar jamlangan voqealik tarzida tasvirlanadi.Shaytoniy istaklar, avvalo, iymonsiz, diyonatsiz, o`z nafsiga qul bo`lgan insonlarda tez paydo bo`ladi. Shoirning “Bobo duosi”she`rida boboning nevarasiga qilgan nasihatleri tasvirlanadi, unda shoir quyidagi bandlarda shayton va uning qilmishlari tasvirlanadi:

“Inson bolasiga shaytondir hamroh,

Uning firibidan bo`l doim ogoh.

Abdulla Oripov ijodida shayton obrazi insonlar o`rtasidagi mehr –oqibatning yo`qolib ketishi natijasida paydo bo`lish g`oyasi yotadi .Shoirning “Avliyo qissasi”deb nomlangan she`rida insonlar o`rtasidan ayniqsa hozirgi paytda ko`tarilib ketayotgan oqibat tushunchasi talqin etilgan bo`lib, el orasida shuhrat qozongan avliyoning yer ostiga uzlatga chekinishi bilan el-yurt uni butunlay unutishi voqeasi tasvirlanadi:

Hattoki ezgulik topgaydir barham,
Yumilgay vijdonning ikkala ko`zi .
Avliyo g`or tomon qo`yganda qadam,
Qalblarga kirgandi iblisning o`zi.[78,207]

Shoirning “Iblis “deb nomlangan she`rida iblis haqida rivoyat keltiriladi.Unga ko`ra kunlarning birida Iblis osmondan yerga tushishni istab qolibdi.U xuddi o`zbeklarga o`xshab chopon va do`ppisini kiyib olib, odamlar orasida yashay boshlabdi. Biroq hech kim unga e`tibor qilmas ekan. Shunda u kafkazliklarni libosini kiyib yana bozorga yo`l olibdi, shunda aholi uni o`rtaga olib millatini so`rabdi va uni haydab yuboribdilar:

Cho`ponlar iblisni oldi o`rtaga,
Dedilar: - Millating nadir, ey qo`noq.
Aslingni yashirsang agar jo`rttaga,
O`zingdan ko`rgaysan, bilib qo`y biroq.[81,200]

Shunda iblis osmonga uchib ketadi va bu safar u hindu qiyofasida paydo bo`ladi. Bu safar ham unga hech kim e`tibor bermaydi.Iblisning jahli chiqib keyingi safar bejirim shlyapa va bo`yinbog` taqib keladi.U yana olomon orasiga o`zini uradi, shunda mutlaqo boshqa holat yuz beradi:

Vo ajab! Bu ne hol!Bu ne karomat ?

Uni ko`rgan zahot shovqinlar tindi.

Yurishib ketdiku, ishlar alomat,

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar.

Ushbu she`rda shoir shaytonni ilohiy hodisa sifatida emas, balki real hayotdagi insonlar obrazida tasvirlaydi.Sho`ro davrida ham rus mustamlakachiligining xalqqa

boʻlgan munosabati iblislarga xos edi. Ezgulik boʻlmagan joyda inson hayotini iblis boshqarishi taʼkidladi. Insonlar orasidagi yovuzlik, ikkiyuzlamchilik, munofiqlik kabi illatlarning ildiz otishi shaytoniy istaklarning paydo boʻlishiga zamin hozirlaydi:

Ezgulik gʻaflatda qolgani zamon ,

Inson hayotini iblis boshqarar.[79,106]

Abdulla Oripov ham nafsning barcha turlaridan xabardor ekanligini uning sheʼrlari isbotlaydi .Shoir mumtoz adabiyotimizning dargʻalari ijodini juda puxta bilgan boʻlib ,sheʼrlarida asosan ularning usulidan ham oʻrinli foydalangan. Abdulla Oripovning “ Bul ajab xor kimsadin imdod soʻraydi xorlar ”satri bilan boshlanadigan sheʼridir:

Nafs ila dunyoga dil bergan fosiqlar , siz bu kun,

Yassaviy xoki poyidan aylab oling tummorlar. [22,156]

Ushbu sheʼr yozilgan davr oltmishinchi yillarning oʻrtalarida Ahmad Yassaviy shaxsi, tariqati toʻgʻrisida ijobiy gap aytish mumkin boʻlmagan bir paytda ,shoir nafsni qoralab sheʼr yoza oldi.Bu narsa Abdulla Oripovning Yassaviy dunyoqarashi va ijodiyotining mohiyatini bilishidagina emas ,shoirning shijoatidan ham darak beradi.Shoir “Nafs ila” “dunyoga dil” berishni fosiqlik deb baholaydi , bu esa, uning “nafsi ammora” haqida toʻliq maʼlumotga ega ekanligidan dalolat beradi.Ushbu bayt orqali shoir nafs va nafsoniy hayotga nisbatan munosabatni mukammal aks ettiradi.Shoirning “Fazilat “nomli sheʼrida ham nafs masalasi qalamga olingan boʻlib, nafsini jilovlay olgan inson sharafga loyiqligi , mehnat qilish orqali inson oʻzini mukammal qila olish gʻoyasi ilgari surilgan:

Ariza yozib yo iltimos qilib ,

Hech kim bu dunyoga kelgan emasdir.

Har banda o`tirsa o`rnini bilib ,

Nafsiga berilmay yashasa basdir. [83,65]

Shoirning “Vijdon “nomli she`rida “Magar ketar bo`lsa vijdon bosh olib,Iymon ham u bilan birga“ ko`chishini tasvirlaydi.Vijdon va iymon yo`q joyda nafs hokimlik qilishini ta`kidlab, shunday deydi:

Devlar qutulgandek Sulaymon o`lib ,

Betizgin tuyg`ular har yon yugurgay.

Qalb degan istehkom posbonsiz bo`lib,

Eng avval nafs unga o`zini urgay [83,255]

Haqiqatdan ham qalb, iymon, e`tiqod, diyonat, xususan ,Vijdon atalmish posbonlaridan ajrala, Nafs qalb hokimiga aylanadi.Nafs hukmronlik qilgan qalbning holati va fojealari mumtoz shoirlar tomonidan juda keng tarzda tasvirlangan.Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyondalaridan biri Ahmad Yassaviy bo`lib,ijodkorning nafs haqidagi baytlari juda mashhur:

Nafsim meni yo`ldan urib xor ayladi,

Termultirib xaloyiqqa zor ayladi.

Zikr aytdirmay shayton birla yor ayladi,

Hozir san deb nafs boshini yanchdim mano [75,45]

Abdulla Oripov ham tariqatning barcha maqomlarini juda mukammal bilgan.Shoir she`rlarida irfoniy g`oyalar ifor taralib turadi, she`rlarda tariqatdagi barcha maqomlarni kuzatish mumkin.Ulardan biri tavakkul bo`lib sanaladi. Tavakkul — barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni Xudodan deb bilish, qalban Parvardigorga suyanish. Tavakkul ilohiy fayzga ishonchli kishining iymonidir. Bu ma`rifat kamolidan keladigan oliy maqomdagi iymondir. Barcha hollarda va amallarda Allohga suyanish, o`zini bir faoliyat asbobi hisoblash, barchani Xudoga

topshirib, Xudodan o'zga narsalar ham Xudodan ekaniga chuqur ishonish. Inson juda ko'p narsalarni qila oladi, ammo bu harakatlarning bari Ulug' Tangri qudrati tufayli, qudratining namoyon bo'lishi ekanini anglash shart. Xudoning irodasi bizning irodamizga hokim. Abdulla Oripovning "Ollohning ishlari "she`rida ham tariqatdagi tavakkul tasvirlangan irfoniy g`oyalarni kuzatishimiz mumkin. She`rda ollohning buyukligi, uning qo`lidan barcha ish kelishi, agar istasa arslonga shoqolni ulfat qilishi, barchaga o`z ishlarini taqsimlab berganligi tasvirlanadi:

Ollohim gohida bolaga o`xshash,

Sho`xlikni yoqtirar ,o`tingaroqdir.

Gohida tomosha qilay deb Xalloq,

Birovning yumushin boshqaga bergay.[26,199]

Shoirning "Hasbi hol "she`rida ham ollohga murojat aks ettirilgan bo`lib,unda iymonsiz insonlarni ham olloh bandam deya rahm qilishi, hasadgo`y insonlarning borligi sababli "Kosang oqarmaydi, toleying kulmas"ligi tasvirlangan:

Zarra ulg`aymagan go`yoki Inson.

Uni bandam degan bir vaqt xudoyim.

"Dunyoda tiriklik emasdir oson "deb nomlanuvchi she`rida ollohning buyukligi, boshga qiyinchilik tushganda nomard insonlardan emas, balki ollohdan madad so`rash lozimligi aytiladi:

Faqat yaratganning ismin takror et,

Boshqa chora yo`qdir , yo`q o`zga imkon. [77,284]

O`zbekiston o`z Mustaqilligiga erishgach, o`zbek xalqi hayotida butkul o`zgarish va yangilanish boshlandi. Ana shu davrdan boshlab, xalqimiz o`zining o`tmish tarixi, milliy qadriyatlari, ma`naviyat ildizlari, tili va dini to`g`risida chuqur va har tomonlama keng fikrlashga kirishdi. Bu esa uning Sho`ro tuzumi davrida ko`p muqaddas narsa va tushunchalardan yiroqlashganligi, diniy va axloqiy hayotida ko`p narsalar boy berilganligini ro`y-rost namoyon etdi.

Mustaqillik hadya etgan erkin fikrlash imkoniyati hamma narsani o‘z nomi bilan atashga da’vat etadi. Adabiyotda ham sifat o‘ssishi va o‘zgarishlarga keng yo‘l ochildi. O‘zining sarchashmalaridan bir qadar ajratilgan o‘zbek adabiyotida ham g‘oyaviy-badiiy an’analar qayta jonlanib, qadim yo‘nalishlarini davom ettirishga kirishdi. Mumtoz adabiyotimiz tajribalaridan juda yaxshi ma’lumki, Sharqdagi boshqa adabiyotlar singari o‘zbek adabiyotining taraqqiyot asoslaridan birini Islom dini tashkil etgan. Filologiya fanlari doktori Hamidulla Karomatovning ta’kidlashicha “Hozircha bizga ma’lum turkiyzabon xalqlarning eng ko‘hna asari - Yusuf Xos Hojibning IX asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asari bo‘lib, unda biz Islom mavzulari va Qur‘oniy iboralarning matnda ko‘p va xo‘p qo‘llanilganligidan voqif bo‘lamiz... Turkiy xalqlarning ilk adabiy asari matnidagi Qur‘oniy mavzular esa o‘sha davr turkiy xalqlari uchun islom ruknlari va Qur‘oni Karim ta’sirining zohirligidan dalolat beradi”.[49,67]

Shunday fikrni Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari to‘g‘risida ham aytish mumkin. Ahmad Yassaviy esa, ochiq-oydin qilib: Meni Hikmatlarim koni Hadisdir,

Kishi bo‘y eltmasa bilgil habisdir...

Meni Hikmatlarim farmoni Subhon,

O‘qib bilsang hamma ma’noyi Qur‘on. [75,45]deydi.

Qur‘on va Hadis o‘qib, ulardagi ma’no va haqiqatlardan ilhomlanib ijod qilish albatta, so‘zning xolisligi, ilohiyligi, hayotiyliigi va hikmatga boyligini ta’minlaydi. Ma’lumki, dunyodagi deyarli hamma dinlarda ham axloq tarbiyasi va axloqiy yetuklikka alohida e’tibor berilgan. Lekin, Islom dinida go‘zal axloq tushunchasi yanada yuqori darajalarga ko‘tarilgan. Shuning uchun Sharq shoirlari axloq va odob masalalarini yoritish yoki hal qilishda Qur‘oni Karim oyatlari va Hadislardagi ko‘rsatmalarga asoslanganlar. Shundan bilish mumkinki, irfoniy g‘oyalarning tarqalishi bevosita Qur‘oni Karim va Hadislar yaratilgan davr bilan bog‘liq.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Sho`ro tuzumi tazyiqi bilan xalqimiz Islom va Irfon olamidani garchi asta-sekin uzoqlashtirilgan bo`lsa-da, ammo, uni diniy va tasavvufiy adabiyotdan butunlay yiroqlashtirishga erisha olinmagan edi. Bu esa chegaralangan tarzda bo`lsa hamki, iste`dodli va dunyoqarashi keng ayrim yozuvchi va shoirlarning ijodida diniy tushunchalar, tasavvufiy his-tuyg`ularning davom topishi uchun imkon bergan edi. Shuni ta`kidlash lozimki, dinga qarshi kurash, ateistik targ`ibot ishlari avj oldirilgan zamonlarda ham Abdulla Oripov she`rlarida ruhoniyl kayfiyat, diniy mohiyat xulosalarning o`rin olganligi alohida e`tiborga molikdir. Bunda shoirning “Bul ajab har kimsadin imdod so`raydir xorlar”, “Pahlavon Mahmud maqbarasi qoshida”, “Ruhim”, “Bahor” kabi she`rlarini eslatib o`tish maqsadga muvofiq. Abdulla Oripov ayrim qalamkashlarga o`xshab, dahriylikdan birdaniga Oллоhparastlik va Ilohiyotchilikka o`tgan shoir emas. Ijodkor sifatida shakllanish bosqichlaridayoq uning ko`ngli va idroki Islom nuri va ziyosi bilan munavvar bo`lgan. “Haj daftari” va “Hikmat sadolari” turkumidagi she`rlarida erishilgan muvaffaqiyatning sir va asoslaridan biri ham ana shunda edi.

Qaysidir o`lkadan kelgan keksa chol,

Bor yo`q bisotidan bo`ldi mosuvo,

Ne qilsin? Chorasiz turaberdi chol,

Dilida shukrona, tilida duo.

O`g`ri hoji esa mamnun ishidan,

Tinmayin sajdaga egilar boshi.

Nobakor bandaning bu qilmishidan

Battarroq qoraydi Ka`baning toshi!

Bu-shayton qilmishining ko`rimli bir holati. Inson vujudiga yashirinib olgan shayton tashqi ko`rinishning bir zarrasi. Bunday nobakor bandalar qanchalik

sajdaga bosh urmasin, ulardan Ollloh taolo yuz o'giradi. Negaki, shaytonsifat odamlar ko'nglida Ollloh ishq i hali uyg'onmagan.

Shoirning "Ollloh dargohi", "Arofat", "Hojilar", "Ka'batulloh", "Payg'ambar" singari she'rlarida kuzatilganidek, shariat ahkomlarini ado etish, haj safari amallarini bajarish, ko'ngilga safar qilish- ruhan poklanishga qaratilgan. "Hojilar" she'rida kuzatilganidek, haj safari bu imkoniyatdan zaruriyat sari yo'lga otlanishdan iborat. Bu yo'lda illatlardan forig' bo'lish ham, va yoki, yana qusurlar botqog'iga botaverish ham mumkin.

BOB BO`YICHA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

1. Abdulla Oripov she'rlarida inson hayotining murakkab muammolari, inson ruhiyati, ilohiy his-tuyg'ularni aks ettirish, komil inson shaxsini shakllantirish masalasi kabilar qalamga olingan bo'lib, ular bevosita tasavvuf she'riyati tajribalariga tayanish orqali aks etadi.

2. Shoir she'riyatida bir qancha diniy-falsafiy tushunchalar mavjuddirki, ularni yangicha poetik usulda talqin etib kelingan. Yangicha obrazlar orqali she'rlarda falsafiy-irfoniy g'oyalar ochib berilgan. Bular ma'rifat, kibr, uzlat, darvesh, tavba, ruh, foniylik, boqiylik, zikr, ezgulik, yovuzlik, vafo, tavakkul va boshqalar.

3. Shoirning "Haj daftari" va "Hikmat sadolari" to'plamlari sharq adabiyotida mavjud bo'lgan "Arbain"lar yaratishning davomi sifatida yuzaga kelgan. A. Oripov lirik qahramonining haj safari-bu Haqqa yetishish yo'lidagi muttasil izlanish orqali boqiy hayot saodatiga erishish, demakdir. Shaxsning o'z "men"ini anglab yetishi tiriklikning bebaho qadriyati sifatida faxrlanadi.

4. "Haj daftari"da o'rtaga tashlangan fikr va tuyg'ularning bir qanchasi Abdulla Oripovning "Hikmat sadolari" turkumida ham davom ettirib, yanada rivojlantirgan. Buni Ona, Shayton, Kaba', hojilarga bag'ishlangan she'rlaridan ham bilish mumkin.

5. Ma'naviy madaniyatimiz, shu jumladan she'riyatimiz ham o'zining azaliy va abadiy o'zanlariga qaytdi. Diniy merosga, diniy-axloqiy g'oyalarga tayanishi, ma'naviyat kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. She'riyatimizga ilohiy ruh kirib keldi. Badiiy ongimiz olamlar ijodkorini bilish, tanish va tanitish sari yuz burdi.

III BOB.

ASQAR MAHKAM IJODIDA IRFONIY G'OYALAR BADIYYATI.

II.2. Asqar Mahkam ijodidagi falsafiy –irfoniy g'oyalarning yoritilishi.

Asl shoir zoti hech qachon she`rdan boyigan emas. Uning topgan boyligi iztirob bo'ladi, xolos. Uning sig'inadigan mozorlari, boradigan bozorlari boshqa bo'ladi. So'fiy zotlar haqida aytilgan bo'lsa-da, Xoja Bahouddin Naqshband bitgan misralar qisman shoirlarga ham tegishlidir:

Bunda za`far yuz birla janda to`nlar sotilur,

Zardo`zi bozorlari ,rastalari boshqadir ... [46,33]

Asqar Mahkam mashhur bo`lishini tasavvur qilish qiyin shoirlar toifasiga kiradi. Bunday “qiyin” shoirlarni qo`shiqlar orqali emas, kitoblar orqali tanishadi. Shoirning she`rlari til,shakl,ifoda va ramzlar nuqtai nazaridan murakkabdir. Bu she`rlar o`quvchidan katta ma`rifiy bilim va ijodiy mushohadani talab qiladi. Asqar Mahkam she`rlarida aks etgan alamli ohang va qora rang shoirning fojiali, og`ir kechgan bolaligining ta`sirida namoyon bo`ladi. Mashhur faylasuf Folkner aytganidek, ”bolaliging qanday kechgan bo`lsa, umringning oxirigacha o`shanday bo`lasan”. Darhaqiqat, Asqar Mahkam bolaligi bilan bog`liq bo`lmasa-da, bolalik chog`idayoq yuragida o`rnashgan inson zotiga bo`lgan ishonchsizlik uning barcha bitiklariga hamohang bo`ldi. Uning Yaratganga ishonchi qat`iylashgan sari, insonga bo`lgan ishonchi o`sha xotiralar iskanjasida qolib ketaverdi.

Alloma Fariduddin Attor shunday degan ekanlar: “Odamzotning ruhi ichkarisidadir, sen unga safar qilmog`ing kerak”. Shoir Asqar Mahkamning ijodi ana shu taxlit edi , ya'ni “ichkariga safar” yo`siniga yo`g`rilgan qalb mahsuli. Insonning mohiyatini anglatishga qaratilgan yozuvlar sirasiga mansub.

Asqar Mahkam asarlarining mohiyatini bilish uchun avvalo tasavvuf ilmidan xabardor bo`lish, so`zning tasavvufiy talqinini bilish muhim bo`lib sanaladi. Islom ta`limotida ikki olam ikki harfdan ya`ni “kof”va “nun” harflaridan yaratilganligi ma`lum. Jaloliddin Rumi “Qur`on”ga asoslanib quyidagilarni aytib o`tganlar: “Har bir narsaning asli- so`z. So`z amaldan tug`iladi. Ulug` Tangri olamni so`z bilan yaratdi va “kun” ya`ni “bo`l” deyishi bilan u bo`la qoldi deydi”,o`zining “Ichindagi ichindadur ”asarida.

So`z – boqiy, azaliy va abadiy. Uni qanchalik tushunsak, shunchalik sayqallanadi. Navoiy bu jarayonni olam ahli quyosh zarrasining abadiy yig`gan yoki undan foydalangani bilan tugamagani dengiz suviga igna uchuni tiqib yoki namlab olgani bilan u kamaymaganiga o`xshatadi:

Olam eli zarra yig`sa jovid,

Nurini kam aylamagaymu xurshid .

Igna uchi bila zabt etib nam ,

Kim bahr suvini aylagay kam.

Shoirning she'rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she'rlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini ko'ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam tasavvuf ruhiyatiga murojaat qilganida uning qoidalari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g'azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o'z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze`lik bilan tan oladi.

Shoirning she`rlari shunchaki irfoniy emas. Agar teran nigoh tashlasak, bu she`rlar zamirida hikmat va ibrat dunyosini ko'ra olishimiz mumkin. Zero, Asqar Mahkam irfoniy ruhiyatga murojaat qilganida uning qoidalari va odoblariga ijodda ham amal qila olgan insonlardandir. U hatto “Xoja Hofiz g'azali bilan tili chiqqan bitta shoirman” deganida ham, o'z ijodi zamirida Hofizdek ustozlar turishini tevoze`lik bilan tan oladi. Navoiy ta`biri bilan aytganda, o'z ijodi va hayotidan masrurlik, unga mahliyo bo'lishlik shoirga mutlaqo begonadir . Uning she`rlarida kamtarona falsafiy ruh seziladi:

Umr kechdi xobu xulyoda

o'tdi qancha azizlar yig'lab...

Hamma shoshib turgan dunyoda

o'tiribman yalpizni hidlab...

So'ng yalpiz ham bir-bir to'kildi

o'z hukmini aytdi tiriklik...

Birov valiy birov shayx bo'ldi

menga qoldi tomoshabinlik...[71,67]

Ushbu satrlarda dunyoni chetdan kuzatayotgan inson tasvirlangan. Go'yo umr uyqu va xayol ichra o'tib ketmoqda, odamlar nimalargadir shoshib, yelib-yugurmoqda. Kimdir bu orada shayx bo'lib, kimdir valiy bo'lib ulgurdi, ammo bir insongina ularni tomosha qildi. O'zgarlar ortidan ergashmadi, chunki uning hayotdan o'z maqsadi va vazifasi bor.

Asqar Mahkam shoirning nafaqat ushbu she'ri, balki umuman ijodida hayotga chetdan nigoh tashlagan insonning tasviri bor. Qaysi bir misraga oshno bo'lmaylik, tashqi muhitni yuqoriroqdan kuzatib turgan siymo gavdalanadi unda. Bu bejizga emas, sababi shoirning o'zi hayotda haqiqatparast edi. Balki shu sabab uning ijodida haqiqat sadolari baralla yangragandir.

Dedim: “Isming nadir ey mohi tobon?”

Dedi: “Ismim yolg'iz Xudoga ayon!..”

Dedim: “Nahot shuncha sirlidir isming?..”

Dedi: “So'rma meni gunohkor qilding!..”

Dedim: “Osiylarga to'ladir dunyo!..”

Dedi: “Men bilmasman... Bilar Kibriyo!..”

Dedim: “Men shoirman... Hofiz naslidan...”

Dedi: “Men Tabrizning muslimasiman!..”[74,132]

Asqar Mahkamning yuqoridagi “Tabriz muslimasi” g`azalida badiiy jihatdan go`zalligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, g'azallarida tovushlarning jaranggiga alohida ahamiyat qaratgan. Takroriy qo'llangan so'zlar unda ma'nolarning bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Takroriy qo'llangan so'zlar shunchaki sahifani to'ldirishga emas, balki o'quvchining ichki tuyg'ularini, she'rga munosabatini jo'shtirishga qaratilgan. O'z navbatida, she'riy san'atlardan unumli va me'yorida foydalana olgan. Ayniqsa, Asqar shoirning savol-javob she`riy san`atini qo'llashi o'zgacha, u o'ziga xos yashirin falsafani, oxirat va dunyo, insoniyat, jamiyat, tashqi muhit va aldov, nohaqlik, mehr-muhabbat, asl haqiqat tushunchalarini bera oladi. “Tabriz muslimasi” aslida taqvo xususida so'zlaydi. Tabrizning oddiy bir muslimasi, shunchaki so'zlamayapti, balki u andisha va Ollohdan qo'rquvchi bandasining ojizona taqvosini ifodalamoqda. Undan savol so'ragan kimsa esa, hali bu taqvodan yiroqdir. Shu sabab, uning savollari ham oddiy. Demak, bu misralar shunchaki oshiq va ma`shuq o'rtasidagi suhbat ham emas, “Analhaq”qa yaqin bo'lgan Mansur Hallojlarning yo'li va ularning nigohlari bilan hayotga razm solishdir. Asqar Mahkam ruh dunyosi , ibtido va intiho ma`nisi, botin, koinot kabi sirli Hazrati odam xususida so`z aytishga azm etgan

shoir . Uning she`rlari sharq falsafiy tafakkuridan oziq olgan. Shuning uchun ham u o`ziga donishmandona munosabatni talab qiladi. Shoirning quyidagi she`ri ham ana shu ruhda yozilgan bo`lib , insoniy munosabatlar barcha narsadan ustun turishini ta`kidlaydi:

Quloqlarim shang`illamang ,bas,
buncha yerga kirmang ko`zlarim.
Dilingizni kemirmasin qasd,
men odamman mening do`stlarim.[71,90]

Ushbu she`rda inson umrining g`animat ekanligi, ko`ngil esa daraxt yaprog`iday nozik bo`lib bir og`iz achchiq so`z ta`sirida o`zining bandidan chirt uzilishi mumkinligi, haqiqiy do`stlarning esa yomon kunda bilinishi go`zal tashbehlar orqali tasvirlangan. Bu dunyo yolg`on, aldamchi ekanligi va insonning insoniyligi oliy tuyg`u ekanligini shoir she`rida keltirgan bo`lib kimgadir qilmoqchi bo`lgan ezgu ishlaringni u insonning tiriklik vaqtida qilish kerakligini, u dunyodan o`tgandan keyin esa afsus nadomatlar foydasizligini ta`kidlagan.

Keyin o`zim ketarman shunday,
ko`hna to`nim turar yelkamda.
So`ng unuting nima ham qilay?
tashlab keting ...o`zim ketganda...

Shoirning “Nuh to`fono, vujud dengizidagi sargashtalik qissasi” deb nomlangan she`rida irfoniy g`oyalar kuylanib, ollohning buyukligiga shukrona qilish kerakligi, barcha mavjudodlarning yaratuvchi ekanligi go`yasi yoritiladi, Nuh payg`ambar kemasi haqidagi rivoyat asos qilib olinadi. She`rning yigirma bir o`rnida “Alhaq”so`zi qo`llanilgan, bundan shoir ham badiiy asar saviyasini yuksaltirgan ham ilohiy ishqdan mast bo`lgan oshiq obrazini mahoratli tasvirlagan. A`rof surasining 180-oyatida: “Allohning go`zal ismlari bor, ular bilan duo qilinglar”deyilgan.Ollohning to`qson to`qqizta ismlaridan biri bu “Alhaq”bo`lib shoir tasavvufdagi zikr amalini o`z she`rida bevosita qo`lladi:

Alhaq, bu olamda men tanho qoldim,
Alhaq , ko`rganlarim tush emas also .

Alhaq , shu kunlarni boshimga soldim,
Alhaq bari tamom barchasi ado.
Alhaq, bu dengizda men-u hayvonot.
Alhaq ,jonim maxluq joniga tutash .
Alhaq , qurtu qushning bir rasuli- men,
Alhaq, to`fon bosdi yerni sarbasar.
Alhaq , bu ofatning ibtidosi –men,
Alhaq , kulli hayot yo`q bo`lsa magar ?...
Alhaq , kalamushlar alhaq baliqlar,
Alhaq , qorlug`ochlar , alhaq baliqlar,
Alhaq, bir kaft yerda o`ngan tiriklar ,
Alhaq , balo tuqqan muslim ayollar...
Alhaq , bu mavjudod qandoq yashaydi.?
Alhaq , ular qurbon bo`lar men uchun ...
Alhaq,qayga qochay bu zor kunlardan ?
Alhaq ,dovullarga kema bo`ysundi.
Alhaq,qonlar qusgan botil tunlarda
Alhaq,men Nuhriman bedomu darak.
Alhaq,men yetarman abadiyatga !...

Shoir anafora badiiy san`atidan mahoratli foydalanib, olam va odam munosabatini aks ettirish ruhiyatning obyektiv borliqqa munosabatini ifodalash, siyratdagi kechinmalarni badiiy tasvirlash jarayonida milliy badiiy an`analar imkoniyatidan keng foydalangan.Shoirning ushbu she`ri ham irfoniy mavzuda yozilgan bo`lib she`rning so`nggi satrlarida shoir insonni har tomonlama poklash uchun avvalo uning qalbini davolash lozimligini aytib o`tib odamzodga “ruhlar ruhshunoslar, bedillar kerak,”ligini yana bir bor takrorlagan.Ushbu she`rda nafsni zaharli ilonga o`xshatgan shoir uning barcha istaklarini amalga oshirsa ertami kechmi u ajdarhoga aylanishi mumkinligini tasvirlaydi.Asvida nafs bu insonning moddiy o`zligi “men”ligidir. Irfoniy jihatdan yondashilsa nafs bu olloh bizning botinimizga bir idora etuvchi, jismimizni moddiy borligimizni, hayot uchun zaruriy

manfaatlarimizni qo`riqlash va qo`llash maqsadida faoliyat ko`rsatuvchi ma`naviy bir borliqdir. Irfoniy g`oyalar insonni o`rganar ekan, avvalo, kishining ko`ngliga, diliga tayanadi, ko`ngilni qalbni tarbiyalashga, ko`ngil kishisini voyaga yetkazishga intiladi, chunki Olloh faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi. Shoir Asqar Mahkam ham ko`nglidagi dushmanidan xavotir olib yashaydi:

Men hamon bir ilon bilan yashayman ,
Erta kun ajdarho bo`lar u yo Rab,
Boraman yo`qlikka langar tashlagan
Vujud – Nuh payg`ambar kemasin boshlab.

Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog`idan, tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan- bir yo`li nafsning ehtiyojini yengishdir. Shuning uchun ham shoir “Yashirib yuribman ko`ksimga bosib, to`fon ichra qolgan og`ir boshimni“ deydi. “Gunohkor dunyoning gunohlaridan” g`olib kelishning birdan –bir yo`li nafsni tarbiyalashdir. Komil inson bo`lish uchun, avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta`masini yengish kerak. Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog`idan tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan –bir yo`li nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Olloh muhabbatiga ko`ngil bog`lash darkor. Irfoniy jihatdan yondashilsa, so`fiylikda buni dunyo mohiyatini va o`zligini, insoniylikni anglash yo`li deb qaralgan:

Dunyoda eng so`nggi payg`ambar kabi

Vasling ehromiga cho`karman, ko`nglim

O`zligini, ko`nglini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari o`tkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: “O`z nafsining yomonligini tanish o`zligini tanishdir.[48,35]

III BOB BO`YICHA QUYIDAGI XULOSALARGA KELINDI:

1. Iymon butunligi va e`tiqod salomatligi badiiy tafakkurning ustuvor yo`nalishiga aylandi. Yorug`lik va qorong`ulikning boqiyiligiga ishonch, yagona Ollohga bo`lgan e`tiqod, uning o`zigagina ibodat qilish ,yolg`iz Ollohdan najod so`rash, iymon

keltirish she`riyatimizdagi diniy axloqning vijdoniga aylanib bormoqda. Fikr, Shukr, Zikr ilohiy mazmunning mehvarini tashkil etmoqda. Asqar Mahkam ijodida buni kuzatishimiz mumkin.

2. Asqar Mahkam ijodida hayotning murakkab muammolari, asosan, inson qalbi va ruhiy olamida pinhon yotgan ilohiy his- tuyg`ularni aks ettirishda tasavvuf she`riyati tajribalariga tayanish mayllari ham mavjud ekanligini e`tirof qilish o`rinlidir.

3. Shoir she`rlarida ilgari surilgan g`oyalarning asl manbasi islom dinining muqaddas manbalari: Qur`on va hadis hisoblanadi. Asosida islomiy manbalar jo bo`lgan bu she`rlar yosh avlodni komilikka chaqiradi, ularda ezgu sifatlarni shakllantirishga asos bo`lib xizmat qiladi.

4. Asqar Mahkam she`rlarida rumiyona falsafani kuzatish mumkin. Modern yo`nalishdagi she`rlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa e`tiborga loyiqki, shoir aytmoqchi bo`lgan fikrini dalillash yo`lidan boradi. Bunda u islom dini nuqtai nazaridan yondashadi. She`rlardagi irfoniy g`oyalar ma`rifat nuri bilan yo`g`rilgan.

UMUMIY XULOSA

1. Irfoniy g`oyalar tasvirlangan she`riyat – majoziy she`riyat bo`lib, unda tadbiiq etilgan ifoda vositalari, istiloh va timsollar she`rning g`oyaviy – badiiy tarkibini ochishga xizmat qiladigan yoki yordam beradigan “belgi”, “ko`rsatkich” vazifasini bajaradi.

2. Irfoniy g`oyalar sharq fikriy taraqqiyotidagi ko`p asrlik tajribalarni qamrab olib, uni rivojlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarni birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilab dunyoviy ilmlarni o`zaro bog`lashga harakat qildi. Natijada, Irfon Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi. Shu ma`noda, necha asrlar o`tishiga qaramasdan mazkur diniy ta`limot o`zbek she`riyatining asosiy manbalaridan biri bo`lib kelmoqda. Ijodkorlarimiz bu o`lmas manbalarga murojaat qilish orqali

ilohiy-irfoniy g`oyalarni targ`ib qilish va ular orqali bugungi yosh avlodni tarbiyalash vazifasini so`z san`ati orqali bajarib kelmoqdalar.

3. Mustaqillik davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri diniy-axloqiy g`oyalarni adabiy janrlarning turli shakllarida ,jumladan, she`riyatda aks ettirish kuchaydi. Islom dinining muqaddas manbalari – Qur`on va Hadislar istiqloq davri adabiyoti uchun ham asosiy sarchashma vazifasini o`taganligi ko`zga tashlanadi. Mustaqillik davri she`riyati insondagi eng oliy narsa – ruhni, uni jilvador olamini kuylash sari bordi va buni turli nuqtalardan turib amalga oshirdi. Bu davr she`riyatidagi badiiy izlanishlarni kuzatish asosida quyidagilarga guvoh bo`lish mumkin. So`nggi yillar she`riyatida o`ziga xos uslubda qalam tebratayotgan, ayniqsa, boshqa shoirlardan farq qilib, she`riyatda tasavvuf ohanglariga qayta – qayta murojaat qiladigan ijodkorlardan biri Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodini kuzatish va tahlil qilish asosida ishning boblaridagi bildirilgan fikrlarga tayanib, biz quyidagi xulosalarga keldik.

4. An`anaviy she`riyatda teng hijolikka amal qilingan bo`lsa, bu davrga kelib she`rning shakli bilan bog`liq izlanishlar vazn ,qofiya va janrlarga murojaatdagi kabi hijolar borasida ham erkin yo`l tutishda yorqin ko`rinadi.

5. XX asrning so`nggi yillari she`riyati shoirlarning jahon ilg`or adabiy yo`nalishlari tajribalaridan, mumtoz she`riyatni o`zlashtirishdan tashqari, shu davrda tug`ilgan imkoniyatlarning namoyon bo`lishi Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodi misolida kuzatildi.

6. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatidagi ijodiy yangiliklar, shakliy –mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo`lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo`lgan o`zgarishlar bilan bog`liq.

7. Abdulla Oripov she`rlarida ruhoniyyat, diniy mohiyat va xulosalarning o`rin olganligi alohida e`tiborga molikdir. Shoir ijodkor sifatida shakllanish bosqichlarida uning ko`ngli va idroki islom nuri va ziyosi bilan munavvar bo`lgan.

8. Shoirning “Haj daftari ” va “Hikmat sadolari” kabi to`plamlari Sharq adabiyotida mavjud bo`lgan “Arbain”lar yaratishning davomi sifatida yuzaga keldi. Abdulla

Oripov hazrat Alisher Navoiyning “Arbain” asaridagi falsafiy –axloqiy qarashlarni yangi voqelik ,yangi hayot material asosida davom ettirdi.

9.Abdulla Oripov va Asqar Mahkam she`riyatida bir qancha diniy –falsafiy tushuncha va haqiqatlar mavjuddirki, shoir ularni ham yangicha poetik usul va obrazlar orqali talqin qilib berishga erishgan. Bular ma`rifat, irfon, ilm,uzlat, darvesh, ruh, zikr,tavba,foniylik, boqiylikdan va boshqa tushunchalar ham mavjud.

10.Irfoniy g`oyalarning badiiy talqinini Abdulla Oripov va Asqar Mahkam ijodida o`ziga xosligi yaqqol ko`rinadi.Abdulla Oripov ijodida xalqona ohanglarda Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshbandning falsafiy qarashlari, Asqar Mahkam ijodida Rumiyona falsafani kuzatishimiz mumkin.

11.Mazkur ijodkorlar she`rlarida tavba, istig`foriga da`vat, ruhni poklashga undovchi tuyg`ularni ifoda qilish bilan birga, hasad,adovat, yolg`onchilik, ikkiyuzlamachilik,g`iybat, xiyonat,ta`ma kabi illatlarning chuqur badiiy tahlili shu darajada amalga oshirildiki, natijada o`zbek she`riyatida umuminsoniy va milliy tamoyillarning chuqurlashuviga sezilarli darajada ijobiy ta`sir ko`rsatgan.

12.Ijodlari tahlil qilingan qalam sohiblarining she`rlarida yoritilgan mavzu, voqealarga emas, balki ifoda usuliga alohida e`tibor berildi va she`rlardagi irfoniy g`oyalarni berishdagi o`ziga xoslik tahlilga tortildi.

13.Abdulla Oripov va Asqar Mahkam she`rlarida tasavvufona ruh , irfoniy g`oyalar, ko`ngil sirlarini kashf etishga urinish , dilning qat-qatiga berkingan ilohiy tuyg`ularni uyg`otish va ularga shoirning badiiy munosabati she`rlari misolida tahlil qilib o`tildi.

14.Mustaqillik davri o`zbek she`riyatida nafaqat mavzu ko`lamdorligini kuzatamiz,balki she`riy shakllarning mumtoz namunalari: g`azal, muxammas, ruboiy kabilarga ham murojaat qilingan.Bu janrlar irfoniy mavzular tahlili uchun juda qulaydir.

15.Falsafiy-irfoniy mavzular ijodkorlar g`oyaviy –estetik maqsadini ifodalash uchun bir vosita vazifasini bajargan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, diniy merosga , irfoniy –axloqiy g`oyalarga tayanish- ma`naviyat kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. U olamni, uning gultoji sanalmish Odamni to`kis bilishga va shu asosda , borliqning ijodkori Ollohni tanishga imkon yaratadi. Mustaqillik davri o`zbek she`riyatidagi irfoniy g`oyalarni anglash esa ushbu maqsadga erishish sirlarini o`rgatuvchi qo`llanmadir. Zamonaviy she`riyatimizda ijodiy izlanish , yangilanish jarayonlari kechmoqda. Ma`naviy madaniyatimiz, shu jumladan, she`riyatimiz ham o`zining azaliy va abadiy o`zanlariga qaytmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. Normativ – huquqiy hujjatlar:

1. Karimov I.A. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -174 б.
2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор-маънавиятга, келажакка эътибор. “Шарқ юлдузи” журнали, 2009. 3-сон, 39 бет.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-T: “O`zbekison”, 2000.156 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish ,kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda

targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida "farmoni –Т.: Маънавият,2017.10 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: “Ўзбекистон”. – 2017.– 102б.

6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

II. Asosiy adabiyotlar:

Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar:

7.Абу Али Ибн Сино .Ҳикматлар.- Т.: " Ўзбекистон" 1980.-Б.43-168.

8.Абу Лайс Ас-Самарқандий. Танбеҳул ғофилийн. Мовар. Т.: 2003. -218 б.

9.Адабиёт назарияси .2 томлик М.Нурмуҳаммедов таҳрири остида 2-том .- Т.:Фан 1979,- 416 б.

10.Адабиёт назарияси . Издат Султон.-Т.: “Ўқитувчи ”1989.-378 б.

11.Ahmad Abdullayev . Tasavvuf va uning namoyondalari. Ilmiy – ommabop risola .Termiz, 2007. -213 b.

12.Ахлоқ одобга оид ҳадис намуналари .-Т.:Фан ,1990.- 170 б.

13.Афоқова Н.Абдулла Орипов лирикасида бадиий санъатлар.-Бухоро, 1994.- 74 б.

14. Асқар Маҳкам. Тазарру.-Т.: “Ўқитувчи”,1973. - 245 б.

15. Асқар Маҳкам. Ҳақ. “Адиб”, Душанбе. 1998. – 210 б.

16. А.Маҳкам. Аналҳақ. “Абдулла Қодирий”, Т.: 2003.- 136 б.

17.Asqar Mahkam Tabriz daftari "Al-Xudo" xalqaro nashriyoti,"Minhoj" , Т.: 2004. -132b

18.Аҳмад Яссавий .Ҳикматлар.- Т.:Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти ,1991.-256 б.

- 19.Амонова З.Қ. Ҳуруфийлик ва XIV- XIX асрлар о`збек мумтоз адабиёти:филол.фанлари номзоди....дисс.афтореф.- Самарқанд, 2012.-27 б.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари Т.: “ Шарқ” НМК. 2002.-340 б.
- 20.Баҳодир Карим .Янгиланиш соғинчи - Т.: “Адабиёт жамгармаси”, 2004.- 80 б.
- 21.Бертелс Э. Навоий ва Аттор.- Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2005.76-бет.
- 22.Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз кадри. Т.: Адолат , 2004.- 192 б
23. Egamqulova N.B. “Abdulla Oripov she`riyatining lingvopoetik tahlili mag. diss.- Navoiy,2011. 80 b.
- 24.Ҳаққулов И. Ирфон ва идрок. - Т.: Маънавият, 1998. 198-б
- 25.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. 150 б
- 26.Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. - Бухоро, 2000 144 -б
27. Намдам Улуг`бек. Yangilanish Ehtiyoji.- Т.: Fan, 2007. – 196 b.
- 28.Намдам Улуг`бек. Yangi o`zbek she`riyati. –Т.:Adib,2012.-304b.
29. Имом Ал -Бухорий Ал -Жомеъ ас-саҳиҳ .4-жилд .- Т.:Қомуслар бош таҳририяти .-Т.:1997.-670 б.
- 30.Имом Ал -Бухорий Ал -Жомеъ ас-саҳиҳ .2-жилд .- Т.:Қомуслар бош таҳририяти .-Т.:1997.-670 б.
- 31.Istiqlol va iste`dod tarbiyasi.- Т.: O`qituvchi,1996. 80 b.
32. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. - Т.:Фан , 2006.- 204 б.
33. Jabborov N. Zamon,mezon,she`riyat G`afur G`ulom nashriyoti Toshkent 2015.95-b.
- 34.Karimov H. Istiqlol davri she`riyati -Т.: “Zarqalam”, 2005.-150-b.
- 35.Комилов Н. Маънолар оламига сафар.- Т.: Тамаддун,2002. – 316 б .
- 36.Komilov N.Xizr chashmasi. Ma`naviyat.T.:2005.-97 b.
- 37.Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996. 271- б.

- 38.Кошифий Ҳусайн Воиз .Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати.- Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1994.- 112б.
- 39.Кушкарров С. Суфий шеърляти.- Т.:Зарқалам, 2005. -300 б.
- 40.Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири .Абдулазиз Мансур таржимаси.- Т.: "Тошкент ислом университети" нашриёт матбаа бирлашмаси,2004.-618 б.
41. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди.-Т.:Ёш гвардия,1988.-160 б.
- 42.Орипов А. Ишонч кўприклари.-Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти,1989.-240б.
- 43.Орипов А. Адолат кўзгуси. - Т. Адолат, 2005. - Б.400.
- 44.Орипов А. Сен баҳорни соғинмадингми? -Т. Ёзувчи, 1991. 32- б.
- 45.Орипов А. Танланган асарлар. 1-том. Т.Адабиёт ва санъат , 2000. 431-б
- 46.Орипов А. Танланган асарлар. 2-том. Т. Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.492-
- 47.Орипов А. Танланган асарлар. 3-том. Т. Адабиёт ва санъат, 2001. 382-б
- 48.Орипов А. Танланган асарлар. 4-том. Т. Адабиёт ва санъат, 2001.381- б
- 49.Орипов А. Танланган асарлар. 8 жилд. Т. Адабиёт ва санъат, 2001.381- б
- 50.Oripov A. Haj daftari. T. Murod firmasi . Mirzo Akbar nashr bo‘limi, 1992.
- 51.Vohidov R. Ma`naviyat olamining porloq quyoshi.- Вухоро, 2004.-52 б
- 52.Qarshiboyev M. Noma`lum odam.- Т.:Ма`naviyat, 1997. – 55б.
- 53.Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти . –Т.: Фан” 260 б
54. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Т.:,2004.- 128 б.
- 55.Sirojiddinov Sh. Ilm va taxayyul sarhadlari. – Т.: Yangi asr avlodi,2001. -132б.
- 56.Usmon Turar .Tasavvuf tarixi. – Т.: Istiqlol, 1999.-180 б.
- 57.Шайх Аззизиддин Насафий ”Зубдатул Ҳақойиқ.-Тафаккур 1992. 150 – б

III.Qo`shimcha adabiyotlar:

Maqolalar:

58. Abdulla A`zam .Ozod domla formulalari. Tafakkur jurnali, 2004,3-son.23-b.
59. Alisher Narzullo. Har lahzada tazarru. www.ziyo.com.
60. Asqar Mahkam Men yarmi – fors , yarmi turkiyman www.fikr.uz.
61. Афоқова Н. Шеър , ҳадис, ҳикмат. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1994.-
3июн.
62. Afoqova N. G`aniyev I. She`r - haqiqat darakchisi. O`zbek tili va adabiyoti.
1997.5-sentabr
63. Hamdamov A. Abdulla Oripov she`riyatida insoniylik talqiniga doir. O`zbek tili
va adabiyoti. 1998. 43-45-b
64. Ikrom Otamurod .Men endi ketarman pinhon va yolg`iz. www.fikr.com
65. Jabbor Omonturdiyev. So`zning tasavvufiy talqini. Tafakkur .2000. 28- bet;
66. Karimov N. Hikmat sadolari. O`zbekiston ovozi. 1992. 29-yanv.
67. Karimov N. Dunyoda diyonat hali mavjuddir Saodat. 1991. № 6-b. 35-37-b.
68. Karomatov N. “Hikmat sadolari”.- O`zbekiston ovozi. – 1992.29-yanvar.
69. Meliyev S. She`riy so`z va estetik ta`sir. O`zbek tili va adabiyoti. -1982.№ 2.
70. Nazarov B. Abdulla Oripov haqida. Sharq yulduzi. 1997. №11.154-162-b.
71. Nazarov B. Sevinch dardim - bari Vatanim. Sharq yulduzi. 1997. №11.
72. Nabijon Boqiy . Asqar Mahkam Kofarnihonga qaytdi. www.ziyo.uz.
73. Nabijon Boqiy. Bolalikdan bolalikka qaytgan shoir. www.kutubxona.uz
74. Ne`matullo Ibrohim. “Men shoir emas shunchaki rostgo`y edim” www.ziyo.uz
75. Nazarov B. Abdulla Oripov haqida. Sharq yulduzi. 1997. №11.154-162-b.
76. Norboyev B. Ikki shoir qahramoni . Sharq yulduzi. -1982. -№ 3.156-160.

77. Normatov U. Dunyoni yangicha ko`rish ehtiyoji.-Jahon adabiyoti.- 2002.-
12son
78. Oripov A. (She`rlar) . Xalq so`zi. -1996. 27-dek
79. Odil Ikrom. Qahraton qishlarda vidolar aytdim. www.fikr.uz
80. Oripov A. O`zim haqimda . Yoshlik. -1992. -№ 7-8-b
81. Oripov A. (She`rlar) . Xalq so`zi. -1996. 27-dek.
82. Qayipbergenov T. Zar qadrini zargar bilar // Amu tongi. -1999. - 16 yanv.
83. Quyuvatova D. «Tavajjuh» poemasi da makhtub-monolog» Филология масалалар 7. Тошкент: "Фан" нашриёти, 2013, 288 бет, 90- 93- бетлар.
84. Rahimjonov N. Mustaqillik davri she`riyatining yetakchi xususiyatlari. – o`zbek tili va adabiyoti.-2001. 5-son.
85. Rahimjonov N. Inson qalbi jarayonlari. O`zbekiston adabiyoti va san`ati. 1991.
3-may.
86. Rahimjonov N. Diniy-axloqiy g`oyalarning badiiy talqinlari. O`zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002. 5-son. 7-11-b
87. Rajabova.F. Diniy ma`rifiy g`oyalarning badiiy talqini. “Fan taraqqiyot va yoshlar”. 76-bet. Qarshi. 2015.
88. Xurshid Davron “Osmonga talpingan shoir” www.ziyo.uz.
89. Yusufali Shonazarov. Goh so`yladik uryon , gohi munaqqa. www.fikr.uz

VI. Lug`atlar va ensiklopediyalar:

90. Чори И. Тасаввуф луғати . Тафаккур. Тошкент, 1997-й. 1-сон.
91. Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати.-
Хо`жанд, 2000.-156 б.

92.Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент : Ўқитувчи,1970.-299 б.

93.Ўзбек тилининг изоҳли луғати 1977.- Тошкент: Давлат илмий нашриёти.www.ziyouz.com.kutubxona.

94. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr. 2010. 173-b.

VII .Internet saytlari